

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

HARBIY KAFEDRA

Raximov Sh.M., Egamberdiyev M.P.

ALOQA TUGUNLARI

O'quv qo'llanma

Toshkent 2018

Mualliflar: Sh.M. Raximov, M.P. Egamberdiyev. “Aloqa tugunlari”.

O‘quv qo‘llanma – Toshkent: TATU. 2018 – 84 b.

Ushbu o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Birlashgan shtabi boshlig‘ining 2004 yil 6-iyuldagi 64-sonli buyrug‘i asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, unda aloqa tugunlari, uning elementlari va aloqa tugunlarida tezkor – texnik xizmatni tashkillashtirish bo‘yicha barcha ma’lumotlar to‘liq yoritilgan.

Qo‘llanma Toshkent axborot texnologiyalari universiteti harbiy kafedrasida talabalarining “Taktik maxsus tayyorgarlik” fani o‘quv dasturiga mos ravishda yaratildi. O‘quv qo‘llanmada aloqa tugunlari, ularning tasnifi, ekspluatatsiyasi va boshqaruvini tashkil etish ko‘rib chiqildi.

Aloqa tugunlarida navbatchilikni tashkil etish, javobgar shaxslarining majburiyatlari, aloqa tugunini belgilangan jangovar shaylik darajasiga keltirish haqida ma’lumotlar berildi.

Radioelektron vositlarning elektromagnit moslashuvi muammolari, radiohalaqit turlari, radioelektron moslashuvni ta’minlash bo‘yicha tadbirlar yoritildi.

Mazkur o‘quv qo‘llanma Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU harbiy kafedrasida tahsil olayotgan talabalar, TATU Maxsus fakulteti kursantlari, O‘R Mudofaa vazirligi “Kichik mutaxassislarni tayyorlash markazi” aloqa yo‘nalishi kursantlari, shuningdek O‘R Qurolli Kuchlari safida xizmat qilayotgan aloqachilar uchun o‘quv jarayonida foydalanish uchun mo‘ljallangan. Mazkur o‘quv qo‘llanma talabalarga, kursantlarda va harbiy xizmatchilarga aloqa tugunlari, ularni boshqarish va ekspluatatsiya qilish, aloqa tugunlarining tarkibi va joylashuvi bo‘yicha nazariy va amaliy jihatdan bilimlarini oshirish uchun xizmat qiladi.

O‘quv qo‘llanma Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti ilmiy-uslubiy kengashining qarori bilan chop etishga tavsiya etildi (2018 yil “___” _____, ___ – sonli bayonnoma).

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti, 2018

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 26 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga bayram tabrigida ta'kidlaganidek mamlakatimizning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, armiya va xalq birligini ta'minlash borasida joylardagi davlat hokimiyati organlarining rolini oshirish bo'yicha ishlar butunlay yangi sifat bosqichiga ko'tarildi.

Hozirga Qurolli Kuchlarimizda olib borilayotgan izchil islohatlarning natijasida harbiy aloqa mutaxassislariga qo'yilgan talablar yanada oshmoqda. To'g'ri tashkil etilgan aloqa qo'shinlarni, kuchlarni ishonchli boshqaruvini va qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlaydi.

Shiddat bilan o'zgaruvchi zamonaviy jang sharoitida, qo'shinlarni, kuchlarni va qurollarni boshqarishda harbiy aloqachi mutaxassislar uchun aloqa tugunlari, ularning ekspluatatsiyasi va boshqarilishini tashkil etish, aloqa tugunini belgilangan jangovar shaylik darajasiga keltirish, radioelektron vositalarning elektromagnit moslashuvchanligiga doir bilimlar muhim o'rin tutadi.

Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda ushbu o'quv qo'llanmada aloqa tugunlari, ularning tasnifi, aloqa tugunlari ekspluatatsiyasi va boshqaruvini tashkil etish, unda navbatchilikni olib borish, javobgar shaxslarning majburiyatlari, aloqa tugunlarida radioaloqa vositalarini samarali joylashtirish, ularning elektromagnit moslashuvi bo'yicha barcha ma'lumotlar yoritib berilgan.

Har qanday jangni olib borish komandirlar va shtablar tomonidan amalga oshiriladigan – jangni tayyorlash, uni rejalashtirish va tashkillashtirish kabi qator tadbirlar o'tkazilishini taqozo qiladi. Ushbu tadbirlarning to'liqligi va sifatli bo'lishiga jangni tayyorlash va olib borish davomida bo'linmalarni boshqarishni yaxshi tashkillashtirish orqali erishiladi.

Aloqa tizimi boshqaruv tizimining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. U aloqa kuch va vositalarini tashkiliy-texnik birlashtiradi va komandirlar va shtablarga jangda bo'linmalarni boshqarishni ta'minlab berishga xizmat qiladi.

Boshqaruvni tashkillashtirish sifati jang yakuniga uzil-kesil ta'sir qiladi va u birinchi navbatda aloqani tashkillashtirishning sifatiga bog'liq bo'ladi.

Aloqa vositalarini qo'llash – boshqaruvning eng samarali, zamonaviy va keng tarqalgan usuli hisoblanadi. Bunda aloqa uchun asosan elektr, ya'ni simli va radioaloqa vositalari qo'llaniladi, yuqori boshqaruv bo'g'inlarida bulardan tashqari radiorele aloqasi, stasionar boshqaruv punktlari va boshqa obyektlar o'rtasida aloqani ta'minlash uchun esa optik tolali aloqa tizimlari ham qo'llaniladi. Bularning barchasi asosan aloqa tuguni tarkibida qo'llaniladi, kam ucharydigan hollarda alohida qo'llanilishi mumkin.

I. ALOQA TUGUNLARI (AT) HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR

1.1. Aloqa tugunlari

Hozirgi zamonaviy urush tez va keskin o'zgaruvchan sharoit bilan, qo'shinlarni keng va chuqur yo'nalishda taqsimlash va jangovar harakatlarni turli yo'nalishlarda olib borish bilan ta'riflanadi. Jangovar harakatlar qat'iyligi va tezkorligi bilan ajralib turadi. Bu mahalliy (lokal) urushlarni olib borish tajribasi bilan tasdiqlanadi. Bunday sharoitda muvaffaqiyatni ta'minlovchi omillardan biri qo'shinlarni va qurollarni bilimli boshqarishdir.

Bo'linma, qism, qo'shilma va birlashmalarni jangga tayyorlash vaqtida va jang davomida ishonchli va samarali boshqarishni amalga oshirish maqsadida boshqarish tizimi tashkil qilinadi. Boshqarish tizimiga to'rtta asosiy element kiradi:

- boshqarish organlari;
- boshqarish vositalari;
- boshqaruv punktlari;
- aloqa tizimi.

Aloqa tizimi – qo'shinlar, kuchlar va qurollarni boshqarish tizimining tashkil etuvchi qismi bo'lib, u qo'yilgan vazifa, joy va harakat vaqti bo'yicha o'zaro bog'langan va kelishilgan aloqa tugunlari, liniyalari va stansiyalarining yig'indisidir.

AT aloqa tizimining muhim elementlaridandir.

Aloqa tuguni – boshqaruv punktida yoki kanallarni (xabarlarni) tarqatish (kommutatsiyalash) punktida qo'shinlarni (kuchlarni) boshqarish jarayonida axborot almashinish maqsadida yoyilgan aloqa, avtomatlashtirilgan boshqaruv va axborotlashtirish kuch va vositalarining tashkiliy-texnik birikmasidan iborat bo'lgan aloqa tizimi elementidir.

Aloqa tugunlari tinchlik davrida ham, urush davrida ham qo'shinlarni (kuchlarni) boshqarishni ta'minlash uchun **mo'ljallanadi**, hamda hududiy aloqa tizimining asosini va avtomatlashtirilgan boshqaruvning transport muhitini tashkil qiladi – O'R QKning aloqa va telekommunikatsiya tizimining muhim elementi hisoblanadi.

O'R QK aloqa tugunlari quyidagicha tasniflanadi:

a) jihozlanishi va harakatchanligiga ko'ra:

- qo'zg'almas (statsionar);
- harakatdagi;
- daladagi;
- havodagi;
- temir yo'ldagi.

b) OQQdan himoyalanganlik darajasiga ko'ra:

- himoyalangan;
- himoyalanganmagan.

d) boshqaruv bo'g'iniga dahldorligiga ko'ra:

- strategik boshqaruv bo'g'ini aloqa tugunlari;
- tezkor-strategik boshqaruv bo'g'ini aloqa tugunlari;
- tezkor boshqaruv bo'g'ini aloqa tugunlari;
- tezkor-taktik boshqaruv bo'g'ini aloqa tugunlari;
- taktik boshqaruv bo'g'ini aloqa tugunlari.

d) boshqaruv bo'g'iniga dahldorligiga ko'ra:

- O'R MV BSh AT;
- HO shtablari, QK turlari AT;
- Birlashmalar AT;
- Qo'shilmalar AT;
- Alohida batalonlar AT.

ye) boshqaruv punktlariga (BP) dahldorligiga ko'ra:

- birlashgan QP AT;
- ilg'or (zaxira, front orti) QP AT;
- yordamchi BP AT;
- havodagi BP AT;
- temir yo'ldagi BP AT.

f) boshqaruv organiga dahldorligiga ko'ra:

- O'R MV Bosh shtabi aloqa tugunlari;
- hamkorlik qiluvchi vazirlik va idoralar aloqa tugunlari;
- Qurolli Kuchlar turlari, qo'shin turlari, maxsus qo'shinlar aloqa tugunlari;
- harbiy okruglar aloqa tugunlari;
- harbiy garnizonlar, qo'shilmalar, harbiy qismlar aloqa tugunlari.

g) aloqa tizimidagi vazifalariga ko'ra:

- boshqaruv punktlari aloqa tugunlari (BP AT);
- garnizon aloqa tugunlari (GAT);
- tayanch aloqa tugunlari (TAT);
- yordamchi aloqa tugunlari (YoAT);
- maxsus aloqa tugunlari.

h) bo'ysunuviga ko'ra:

- katta (bosh) AT;
- bo'ysunuvchi AT;
- hamkorlikdagi AT.

i) avtomatlashtirish darajasiga ko'ra:

- avtomatlashtirilgan AT;
- avtomatlashtirilmagan AT.

Birlashma aloqa tizimi tashkiliy jihatdan quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'z birlashmasi va bo'ysundirilgan qism (bo'linma) BP AT;
- yordamchi AT;
- retranslyasiya punktlari;
- BPlari orasida to'g'ri chiziqli aloqa liniyalari;
- FPA stansiyasi;
- aloqa harakatlanish vositalari yo'nalishi, aloqa boshqaruv punktlari;
- texnik ta'minlash organlari;
- qo'shinnlarni avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlari;
- aloqaning zahira kuchlari va vositalari.

BP AT zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatiladi:

– belgilangan nazorat muddatlarida va talab qilingan sifat darajasida jangovar boshqaruv signallarini (farmoyishlarini) uzatish va qabul qilishni, barcha turdagi axborotlar almashinuvini ta'minlash;

– yadro hujumi xavfi, havo vaziyati, radiatsion, kimyoviy va bakteriologik (biologik) zaharlanish va tabiiy ofatlar haqidagi qo‘shinlarni (kuchlarni) ogohlash signallarini zudlik bilan yetkazilishini ta‘minlash;

– amaldagi o‘rnatilgan aloqalarni belgilangan ish rejimlarida ushlab turish hamda rejalashtirilgan va yangidan tashkil qilinayotgan aloqalarning o‘z vaqtida o‘rnatilishini ta‘minlash;

– aloqa, telekommunikatsiya va avtomatlashtirilgan boshqaruv vositalarining barqaror ishlab turishini ta‘minlash;

– chiziqli va guruhli aloqa kanallari va traktlarini tashkil qilish, ularni sozlash va o‘lchash, shuningdek rejalashtirilgan trakt va kanallarning tranzit ulanishini amalga oshirish;

– aloqa kanallari orqali uzatilayotgan axborotni avtomatik ma‘fiylashtirish;

– AT balansida bo‘lgan aloqa liniyalariga ekspluatasion xizmat ko‘rsatish;

– harakatlanuvchi aloqa vositalari bog‘lanishi uchun aloqa vositalari va qurilmalarining texnik shayligini ta‘minlash;

– aloqa vositalari bilan jihozlangan ixtiyoriy turdagi transportda harakatlanayotganda komandirlar va BP aloqasini ta‘minlash;

– BPda ichki aloqani ta‘minlash;

– aloqaning, axborotning xavfsizligini ta‘minlash;

– chastota-dispatcherlik (ionosfera-to‘lqin) xizmatini va yagona vaqt xizmatini ta‘minlash.

BP ATlar hududiy tarmoqda **tayanch aloqa tugunlari (TAT)** rolini bajarishlari mumkin.

TAT zimmasiga quyidagi vazifalar yuklanadi:

– aloqa kanallarini tashkil qilish, sozlash, o‘lchash, kommutatsiyalash va BP AT hamda YoATga topshirish;

– kanallar tezkor manyovrini amalga oshirish, raqamli oqimlarni (potok) manzillash (marshrutlash), aylanma va tranzit aloqa kanallarini tuzish; turli aloqa vositalari hosil qilgan kanallarni moslashtirish;

– BP orasidagi radioaloqa yomonlashganda radioaloqa retranslyasiyasini va axborotni qabul qilib qayta uzatishni ta‘minlash;

– aloqa vositalari bilan jihozlangan ixtiyoriy turdagi transportda harakatlanayotganda komandirlar va BP aloqasini ta‘minlash;

– TAT yaqinida joylashgan va TATga bog‘lanish uchun o‘z vositalariga ega bo‘lmagan harbiy qism va muassasalar bilan aloqani ta‘minlash;

– birlashtirilgan uchastkalarda aloqa liniyalariga xizmat ko‘rsatish.

ATga qo‘yiladigan talablar:

– harakat vaqtidagi ishonchli aloqa;

– harakatchanlik – qisqa vaqtlar ichida aloqani yig‘ishtirish va o‘rnatish;

– ATning yuqori o‘tuvchanligi;

– AT yashovchanligi – qirg‘in vositalari qo‘llanilganda ham o‘zining ish faoliyatini saqlab qolish;

– aloqa vositalaridan foydalanishning qulayligi;

– ATni tashkil qilish va undan foydalanishning oddiyligi;

– aloqaning yopiqligini ta‘minlash;

- ATni niqoblash;
- ta'sir ko'rsatuvchi shovqinlarni susaytirish.

ATning tarkibi, jihozlari va tuzilishi quyidagilar bilan aniqlanadi:

- ATning mo'ljallanishi bilan;
- BPni joylashtirish, uning jihozi, jangovar ishi va qo'llanishi bilan;
- aloqa tashkil qilish tamoyillari va ATga qo'yiladigan talablar bilan;
- aloqa vositalarining mavjudligi va ularning imkoniyatlari bilan.

Aloqa va avtomatlashtirish vositalarining alohida elementlarga tashkiliy-texnik birlashishi asosida turli tamoyillar yotishi mumkin.

Hozirgi kunda **ikkita tamoyil** ma'lum:

1-tamoyil: vazifasiga ko'ra aloqa va avtomatlash vositalarini alohida elementlarga birlashtirish (aloqa ko'rinishlari va turlari bo'yicha);

2-tamoyil: axborotlash yo'nalishlarida tezkor-taktik vazifalariga ko'ra yoki shtab boshqaruvi (bo'limi)ga tegishliligiga ko'ra aloqa va avtomatlash vositalarini alohida elementlarga birlashtirish.

AT kuchlari va muhandislik-texnik tizimlari (*MTT – elektr ta'minoti va yashashni ta'minlash tizimlari (shamollatish va havoni tozalash, suv ta'minoti, kanalizatsiya va drenaj, isitish va issiq suv ta'minoti, avtomatika va signalizatsiya)*) bajarilayotgan vazifalari xarakteriga, tashkiliy-shtat tuzilmasiga, qabul qilingan ATni boshqarish tizimiga ko'ra tashkiliy va texnik jihatdan AT elementlariga birlashtiriladi.

AT elementi – bu funksional jihatdan bir xil vazifani bajaruvchi AT kuch va vositalarining bir qismidir.

Jangovar post (JP) – aloqa qurilmalari bilan jihozlangan xona (joy) bo'lib, u yerda navbatchi smena tarkibi aloqa va axborot o'tishini ta'minlash bo'yicha vazifalarni bajaradi. Bu shaxslar ushbu JP navbatchi hisob nomeri (raqami) hisoblanadi.

Tashkiliy jihatdan AT tarkibiga quyidagi elementlar kirishi mumkin:

- ATni boshqarish punkti;
- jangovar boshqaruv signallarini uzatish (qabul qilish) maxsus punkti (posti);
- axborot o'tishini ta'minlash Markazi (punkti);
- telegraf Markazi yoki telegraf stansiyasi (P-100);
- telefon Markazi yoki telefon stansiyasi (P-200);
- kanal hosil qilish Markazi (stansiyasi) (P-300);
- axborot va telekommunikatsiya vositalari hamda qo'shinlarni avtomatlashtirilgan boshqarish Markazi (bo'linmasi) (P-400);
- radiomarkaz (radiobyuro);
- axborot o'tishini nazorat qilish punkti (P-500);
- qabul qiluvchi radiomarkaz (P-600);
- uzatuvchi radiomarkaz (P-700);
- xabarlarini kommutatsiyalash Markazi;
- kanallarni kommutatsiyalash Markazi (stansiyasi);
- kosmik aloqa Markazi (stansiyasi) (P-800);
- yerdagi bog'lanish punkti;
- axborot xavfsizligi nazorati punkti;
- MTT Markazi (bo'limi, bo'linmasi, guruhi) (P-900);
- elektr ta'minoti Markazi (bo'linmasi);

- ekspedisiya (jo‘natmalarni yig‘ish, qayta ishlash va yetkazib berish punkti);
- texnik xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash bo‘linmasi (guruhi, punkti).

Har bir jangovar postning (apparaxona, stansiyaning) shartli belgilanishi JP harflaridan va uch-to‘rt xonali sonlardan iborat bo‘ladi, bunda **birinchi raqam** ATning qaysi elementiga (markaziga, stansiyasiga) tegishli ekanligini ko‘rsatadi.

ATning jangovar postlari:

- JP-010 – ATni boshqarish punkti (AT bo‘yicha navbatchi);
- JP-020 – jangovar boshqaruv signallarini uzatish (qabul qilish) maxsus punkti (posti);

- JP-030 – aloqa xavfsizligi nazorati punkti;

Telegraf Markazining jangovar postlari:

- JP-110 – TLGMni boshqarish punkti va kross;
- JP-120 – maxsus TLG apparaturasi apparaxonasi;
- JP-130 – chetki TLG apparaturasi apparaxonasi;
- JP-140 – tonal telegraflash apparaxonasi (stansiyasi, LAZi).

Telefon Markazining jangovar postlari:

- JP-210 – TLFMni boshqarish punkti va kross.

Kanal hosil qilish Markazining jangovar postlari:

- JP-310 – KHQMni boshqarish punkti va kross.

QABV Markazining jangovar postlari:

- JP-410 – QABVM boshqarish punkti va kross.

Axborot o‘tishini ta‘minlash Markazining jangovar postlari:

- JP-510 – AO‘TMni boshqarish punkti va chiquvchi axborotlarni nazorat qilish punkti.

Radio qabul qilish Markazining jangovar postlari:

- JP-610 – RQQM boshqarish punkti va chastota-dispatcherlik posti.

Radiouzatish Markazining jangovar postlari:

- JP-710 – RUM boshqarish punkti va texnik nazorat posti.

Kosmik aloqa Markazining jangovar postlari:

- JP-810 – KAMni boshqarish punkti.

Muhandislik-texnik tizimlari Markazining jangovar postlari:

- JP-910 – MTTMni boshqarish punkti.

Agarda AT tarkibida bir nechta bir turdagi JP lar bo‘lsa, JP dan oldin tartib raqamlari qo‘yiladi. Bunda, maxsus apparatlar apparaxonalarida – birinchi kafolatli, keyin esa – vaqtincha kafolatli maxfiylikni ta‘milaydiganga beriladi. Chetki (oxirgi) uskunalarda esa – birinchi maxfiy, keyin esa – ochiq aloqani ta‘milaydiganga beriladi.

Masalan: 1JP-130, ..., 4JP-130,

1JP-220, ..., 2JP-220 va hokazo.

AT JP ning navbatchi hisob raqamlari (NHR) shartli belgilanishi **NHR** harflaridan va uch-to‘rt xonali sonlardan iborat bo‘ladi, bunda dastlabki ikki raqam ATning qaysi JP ga tegishli ekanligini ko‘rsatadi, keyingisi – tartib raqamini bildiradi.

“1” tartib raqami JP navbatchi hisobi boshlig‘iga, keyingilari esa – NHR ga beriladi.

Masalan:

NHR-111 – TLGM navbatchisi,

NHR-112 – JP-110 navbatchi mexanigi,

NHR-2-131 – 2JP-130 NHR boshlig‘i,

NHR-2-132, NHR-2-133 – 2JP-130 navbatchi telegrafistlari, va hokazo.

Aloqa va telekommunikatsiya vositalaridan samaraliroq foydalanish maqsadida, qo‘shinlarni (kuchlarni) boshqarish manfaatlarida umumiy vazifalarni bajarayotgan turli bo‘G‘ in va boshqaruv organlarining aloqa tugunlari O‘R QKning yagona hududiy aloqa tizimiga birlashtirilishi mumkin.

1.2. AT ekspluatatsiyasini va boshqarishni tashkil qilish

AT ekspluatatsiyasi – ATning yuqori jangovar shayligini ta‘minlashga va uni mo‘ljallanishi bo‘yicha samarali ishlatishga qaratilgan tashkiliy va texnik tadbirlar majmuidir.

AT ekspluatatsiyasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- ATni boshqarishni tashkillashtirishni;
- ATda tezkor-texnik xizmatni tashkillashtirishni;
- aloqa va axborot xavfsizligini hamda chet el texnik razvedkasiga qarshi harakatlarni tashkillashtirishni;
- aloqa va muhandis-texnik tizim vositalarining texnik ekspluatatsiyasini tashkillashtirishni.

ATni boshqarishni tashkillashtirish.

ATni boshqarishni tashkillashtirish bo‘yicha tadbirlar ATga qo‘yilgan vazifalarning samarali bajarilishini ta‘minlaydigan muhim tadbirlardan biridir.

ATni boshqarish ATning tezkor-texnik imkoniyatlaridan samarali foydalanishni va vaziyatning har qanday sharoitlarida unga yuklatilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarilishini ta‘minlashi lozim hamda **quyidagilarni o‘z ichiga oladi:**

- ATni jangovar shaylikning belgilangan darajalariga keltirish **rejalarida** ko‘zda tutilgan tadbirlarni ishlab chiqishni va bajarishni;
 - ATni jangovar, tezkor, maxsus, texnik va ichkari ta‘minotini tashkillashtirishni va olib borishni;
 - tezkor-texnik xizmatni tashkillashtirishni va unga rahbarlik qilishni;
 - AT elementlari o‘rtasida, O‘R QKning boshqa ATlari bilan, davlat aloqa tarmog‘i korxonalarini bilan, turli vazirlik va idoralar aloqa tarmoqlari bilan o‘zaro hamkorlikni tashkillashtirishni va ushlab turishni;
 - kundalik ekspluatatsiya jarayonida va dushman ta‘sir ko‘rsatganda ATning yashovchanligini ta‘minlashni;
 - aloqa va axborot xavfsizligini hamda chet el texnik razvedkasiga qarshi harakatlarni, shuningdek maxfiylik rejimini ta‘minlash bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirishni;
 - AT ekspluatatsiyasi holati haqidagi ma‘lumotlarni yig‘ishni, tahlil qilishni va umumlashtirishni, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilishni, ATning jangovar shayligini yanada takomillashtirish bo‘yicha tadbirlarni ishlab chiqishni va bajarishni.
- ATni boshqarishni amalga oshirish uchun **boshqaruv tizimi** yaratiladi, u:
- boshqaruv organlarini;
 - boshqaruv punktlarini;
 - xizmat aloqa tarmog‘ini;
 - avtomatlashtirish va axborotlashtirish vositalarini **o‘z ichiga oladi.**

ATni **boshqaruv organlari** bo‘lib ham tinchlik davrida, ham urush davrida AT ekspluatatsiyasiga rahbarlik qilish uchun tuziladigan AT va uning elementlarining boshqarmasi (qo‘mondonligi), shtatdagi va vaqtincha guruhlar (hisoblar) sanaladi.

AT boshlig‘i kundalik sharoitda ATni boshqarishni AT bo‘yicha navbatchi orqali amalga oshiradi, ATBN navbatchilikni olib borish jarayonida navbatchi smenani bevosita boshqaradi.

Tezkor vaziyat va aloqa bo‘yicha vaziyat qo‘qqisidan o‘zgargan hollarda, AT jangovar shaylikning yuqori darajalariga o‘tkazilganda, avariya holatlarida va tabiiy ofatlar ro‘y berganda ATni boshqarishni bevosita AT boshlig‘i va AT elementlari boshliqlari amalga oshiradi.

Mansabdor shaxslar va navbatchi smena shaxslari **ATni (AT elementlarini) boshqarishni ATni boshqarish punktidan (ATBP) va AT elementlarini boshqarish punktlaridan (ATEBP)** dan amalga oshiradilar.

Daladagi AT uchun ATBP (ATEBP) – maxsus mo‘ljallangan va texnik vositalar bilan jihozlangan joy bo‘lib, u yerdan AT (AT elementi) boshlig‘i shaxsan (ATBN, ATEBN orqali) bo‘ysunuvchi bo‘linmalarni ularning ko‘chish, yoyilish, barcha turdagi axborotlarni o‘tishini ta‘minlash, yig‘ilish jarayonlarida boshqarishni ta‘minlaydi.

Daladagi (harakatdagi) ATBP boshqaruv apparatxonasida joylashadi, unda jangovar hisob (AT boshlig‘i, ATBN va axborot o‘tishini ta‘minlashni nazorat qilish xizmati navbatchisi) uchun ish joylari jihozlangan bo‘ladi.

Daladagi ATning ATEBP apparatxonalardan birida jihozlanadi, u yerda AT elementi boshlig‘i (ATEBN) uchun ish joyi jihozlangan bo‘ladi.

ATBP va ATEBPning jihozlari va texnik vositalari ATni, uning elementlarini va jangovar postlarini samarali boshqarishni ta‘minlashi lozim, shuningdek aloqa kanallarining, aloqa va QABT vositalarining holatlarini, jangovar boshqaruv signallari va o‘ta muhim axborotlar o‘tishini aks ettirib turish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim.

ATBP jihozlari tarkibida, odatda, quyidagilar bo‘lishi kerak:

- maxsus jihozlangan ish stoli (pult);
- ATni boshqarish va aloqani ta‘minlash uchun zarur bo‘ladigan hujjatlar to‘plami;
- xizmat aloqasi va yagona vaqt apparaturalari;
- aloqaning ishlashi nazoratini ta‘minlovchi jamoaviy va individual foydalanishdagi aks ettirish vositalari;
- boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish texnik vositalari majmui;
- ATni jangovar shaylikning yuqori darajalariga keltirilishini boshqarish va nazorat qilish vositalari;
- xizmat so‘zlashuvlarini hujjatlashtirish vositalari;
- ma‘lumot beruvchi materiallarga ega bo‘lgan avtomatlashtirilgan so‘rovnoma qurilmalari, planshetlar va kartotekalar.

ATEBP jihozlari tarkibi ham xuddi ATBPda o‘rnatiladigan jihozlar kabi bo‘lishi lozim.

ATBP va ATEBP mansabdor shaxslarining funksional majburiyatlari AT (AT elementi) boshlig‘i tomonidan tasdiqlanadigan **Yo‘riqnomalar** bilan belgilanadi.

ATdan aloqalar **chizma-buyruqqa** asosan tashkil qilinadi.

Tezkor vaziyat va aloqa bo‘yicha vaziyat o‘zgarganda chizma-buyruq o‘zgarishi mumkin. Chizma-buyruqda ko‘rsatilgan aloqalarga yangilarini qo‘shish va yoki olib

tashlash mos aloqa boshlig'ining yozma farmoyishi asosida amalga oshiriladi. Tezkor harakat zarur bo'lganda bunday farmoyishlar keyinchalik albatta yozma berilishi sharti bilan og'zaki ham berilishi mumkin. Farmoyishning mazmuni **buyruqnomalar (farmoyishlar) jurnaliga** yozib qo'yiladi.

Aloqani o'rnatish (qayta tiklash), muhandis-texnik tizim texnik vositalarini u yoki bu ish rejimiga o'tkazish bo'yicha topshiriqlar mos aloqa boshlig'idan JP NHRgacha bo'ysunuvi bo'yicha qo'yiladi.

ATni va uning elementlarini boshqarish uchun ATni **boshqarish tizimi** va **xizmat aloqasi tarmog'i** yaratiladi, u boshqaruv tuzilmasiga mos kelishi kerak.

Xizmat aloqasi tarmoqlarida "to'g'ridan-to'g'ri" telefon, shu jumladan baland ovozli aloqalar ham, shtabning (BPning) ATsiga ulangan, ATni boshqarishning avtomatlashtirish vositalarining lokal tarmog'iga ulangan aloqalar ham qo'llanilishi mumkin. Xizmat aloqasi tarmoqlarini yaratishda boshqa ATlarning va davlat aloqa tarmog'i korxonalarining mansabdor shaxslari bilan ham aloqa ko'zda tutiladi.

Daladagi (harakatdagi) ATni boshqarishni ta'minlash uchun daladagi AT boshlig'ining radiotarmog'i, baland ovozli xizmat aloqasi va telefon tarmog'i ishlatiladi.

Radiotarmoq orqali boshqarish marsh o'tkazish davrida, daladagi ATni yoyishning dastlabki bosqichida va yig'ishda amalga oshiriladi. Odatda **bu radiotarmoq tarkibiga**: daladagi AT boshlig'ining, elementlar va alohida joylashadigan vositalar guruhleri boshliqlarining radiostansiyalari kiradi. Texnik imkoniyat mavjud bo'lsa, ushbu radiotarmoq tarkibiga dala ATning barcha apparatxonalar va stansiyalari radiostansiyalari kiritilishi mumkin.

Daladagi (harakatdagi) AT elementlari bilan bog'lanish liniyalari orqali xizmat aloqasi o'rnatilishi bilanoq, ular bilan radioaloqa to'xtatiladi.

Daladagi (harakatdagi) ATlarda xizmat (baland ovozli va telefon) aloqasi ushbu maqsad uchun ajratilgan AT ichki bog'lanish liniyalari, uzatkichlar guruhlarini va chiqarilgan radioelektron vositalar guruhlarini masofadan boshqarish kanallari va liniyalari, shuningdek shu maqsad uchun maxsus yoyilgan liniyalar orqali ta'minlanadi.

Daladagi ATBPdan xizmat aloqasi quyidagicha tashkil qilinadi va ta'minlanadi (odatda):

- BP tezkor navbatchisi bilan – baland ovozli qabul qilish imkoniyati bilan;
- aloqani BP bilan – baland ovozli qabul qilish imkoniyati bilan va telefon;
- aloqa harbiy qismi QP bilan – baland ovozli va (yoki) telefon;
- hamkorlikdagi ATlarning BPlari bilan – ochiq va yopiq telefon;
- ATEBPlari bilan – baland ovozli qabul qilish imkoniyati bilan.

ATEBPdan xizmat aloqasi quyidagicha tashkil qilinadi va ta'minlanadi:

- ATBP bilan – baland ovozli qabul qilish imkoniyati bilan;
- element tarkibiga kiruvchi apparatxonalar, stansiyalar (JPlar) bilan – baland ovozli, chaqiriqni ovoz orqali qabul qilish imkoniyati bilan.

Hamkorlik qiluvchi elementlar BP bilan apparatxonalar, stansiya (JP) lardan xizmat aloqasi quyidagicha tashkil qilinadi va ta'minlanadi:

- elementlarning BPlari bilan – baland ovozli, chaqiriqni ovoz orqali qabul qilish imkoniyati bilan;
- ATning o'zaro hamkorlik qiluvchi apparatxonalar bilan – telefon bilan.

AT elementlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik funksional jihatdan o‘zaro bog‘langan vosita (tizim, trakt, liniya) lardan tezkor va samarali foydalanish, navbatchi smena mansabdor shaxslarining aloqa bo‘yicha qo‘yilgan vazifalarni bajarish va ATning yashovchanligi uchun kurashish bo‘yicha harakatlarini muvofiqlashtirish maqsadlarida tashkil qilinadi va ushlab turiladi.

AT elementlari o‘rtasida **javobgarlik chegaralarini** AT boshlig‘i, JPlar o‘rtasidagini esa – AT elementi boshlig‘i belgilab beradi, bular tegishli mansabdor shaxslar tomonidan tasdiqlanadigan Yo‘riqnomalarda, chizmalarda va boshqa hujjatlarda aks ettiriladi.

Bunda quyidagilarga rioya qilinishi lozim:

– ATdan barcha turdagi axborotlarning, ayniqsa jangovar boshqaruv markazi (JBM) signallarining belgilangan nazorat muddatlarida o‘tishi uchun AT bo‘yicha navbatchi, axborot turlari bo‘yicha esa – ATning tegishli elementlari navbatchi hisoblari mas’ul hisoblanadi;

– AT (AT elementi) vositalarining shayligi uchun AT boshlig‘i (AT elementi boshlig‘i) javob beradi;

– aloqa va MTT vositalaridan to‘g‘ri foydalanish uchun AT navbatchi hisobi javobgar bo‘ladi.

AT elementi mansabdor shaxslarining va navbatchi smena shaxslarining o‘zaro munosabatlari ularning funksional majburiyatlari hamda tezkor-texnik xizmat bo‘yicha tegishli hujjatlar bilan tartibga solinadi.

AT ekspluatatsiyasi jangovar farmoyish hamda ATdan kundalik va jangovar vaziyatlarda foydalanish bo‘yicha aloqa boshlig‘i tomonidan qo‘yilgan vazifalar asosida rejalashtiriladi.

Daladagi (harakatdagi) ATlar uchun **ATni yoyish** – ATlarni yurish holatidan qo‘shin(kuch)larni boshqarish jarayonida berilgan yo‘nalishlarga barcha turdagi ma’lumotlarni (xabarlarni) almashinish va so‘zlashuvlarni olib borish uchun shay holatga o‘tkazish jarayonidir.

Daladagi (harakatdagi) ATlarni yoyish quyidagi ishlarni o‘z ichiga oladi:

– joyni rekognosirovka qilishni, marsh o‘tkazishni;

– elementlar (guruhlar, apparatxonalar, stansiyalar) boshliqlariga yoyish uchun vazifalar qo‘yishni (aniqlashtirishni);

– joyda apparatxona(stansiya)larni joylashtirishni;

– yerlashni, apparaturalarga avtonom manbalardan elektr ta’minotini berishni;

– apparaturani ishga tayyorlashni va uni “o‘ziga-o‘zi” tekshirishni;

– antenna-machta qurilmalarini va chiqarilgan radioelektron vositalarni masofadan boshqarish liniyalarini yoyishni;

– elementlar va apparatxonalar o‘rtasidagi bog‘lovchi liniyalarni yotqizishni va sinov o‘tkazishni;

– abonent liniyalarini yotqizishni, abonent apparatlarini o‘rnatishni va ularning ish qobiliyatini tekshirishni;

– elementlar va apparatxonalar o‘rtasidagi bog‘lovchi liniyalar orqali xizmat aloqasini o‘rnatishni;

– to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa liniyalarida kanallarni hosil qilishni hamda kanallarni qabul qilib, ularni sozlashni va mo‘ljallanishi bo‘yicha apparatxonalariga uzatishni;

– rejalashtirilgan aloqalarni o‘rnatishni.

Daladagi (harakatdagi) ATning boshqaruv punkti joylashadigan yangi hududda yoyilishidan oldin **rekognossirovka**¹ o'tkazilishi lozim, bunda quyidagilar aniqlashtiriladi:

- JBM joylashadigan joylar;
- qo'shin va xizmat turlari boshqaruv punktlari joylashadigan joylar;
- apparatxonalar yoyiladigan hududlar;
- uzatuvchi radiomarkaz hamda radioreley va troposfera stansiyalari guruhlarini yoyiladigan hududlar;
- kelish yo'llari va chiqib ketish marshrutlari;
- BPni qo'riqlash va himoya qilish tartibi va AT uchun ajratilgan mudofaa sektori.

Daladagi (harakatdagi) ATning rekognossirovka guruhi tomonidan quyidagilar aniqlab olinadi:

- har bir elementning chegarasi hamda apparatxonalar va stansiyalar yoyiladigan joylar;
- apparatxonalarning yoyilish joylari tomon harakatlanish marshrutlari;
- kiritish-ulanish kabellarini, elektr ta'minot kabellarini va abonent liniyalarini yotqizish trassalari;
- shaxsiy tarkibning va rezervning dam olish hududi;
- xo'jalik ta'minoti punkti, avtoparklar va shu kabilarning joylashuv hududlari.

Daladagi (harakatdagi) ATning va uning elementlarining, apparatxonalar (stansiyalar) guruhlarining yoyilishini boshqarishni AT boshlig'i va elementlar boshliqlari amalga oshiradilar.

Ularga quyidagi vazifalar yuklatiladi:

- ATning va BP elementlarining joylashuv joylarini aniqlashtirish;
- bo'ysunuvchilarga yoyilish bo'yicha vazifalar qo'yish;
- elementlar (apparatxonalar, stansiyalar) joylashishiga, yoyilishiga (yig'ilishiga) va ko'chishiga rahbarlik qilish;
- bog'lovchi, abonent va elektr ta'minot liniyalarini yotqizish;
- navbatchi smena shaxslariga jangovar navbatchilikka tushishdan oldin Yo'riqnoma berish;
- bog'lovchi va abonent liniyalarini sinovdan o'tkazishda, xizmat aloqasini o'rnatishda, apparaturalarni "o'ziga-o'zi" tekshirishda, kanallarni sozlash va chetki apparatxonalarga topshirishda hamda rejalashtirilgan aloqalarni o'rnatishda navbatchi smena shaxslarining harakatlariga rahbarlik qilish;
- dushmanning texnik razvedka va radioelektron bostirish vositalaridan ATni himoyalash bo'yicha tadbirlarni tashkil qilish va amalga oshirish;
- aloqani o'rnatishga jalb qilinmagan shaxsiy tarkib yordamida jangovar, texnik va ichkari ta'minot tadbirlari bajarilishi bo'yicha ishlarni tashkil etish.

Boshqaruv organlari daladagi ATning yoyilishi va aloqani o'rnatishi jarayonlarini nazorat qilishni bevosita elementlarda, apparatxona (stansiya) larda, shuningdek bo'ysunuvchilarning bildirgilari asosida amalga oshiradilar. Nazorat natijalari tezkor-texnik hujjatlarda rasmiylashtirib boriladi.

¹ Joyni oldindan tekshirib chiqish

1.3. Tezkor-texnik xizmatning ta'rifi, mazmuni va asosiy vazifalari

Aloqa tugunlarida tezkor-texnik xizmatni tashkillashtirish.

ATda tezkor-texnik xizmat – bu qo'shin (kuch) larni boshqarish bo'yicha barcha turdagi axborotlarni o'z vaqtida va sifatli almashinishni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy va texnik tadbirlar majmuasidir.

Tezkor-texnik xizmat ATdagi eng muhim xizmat hisoblanadi hamda ushbu AT tomonidan hal qilinadigan vazifalarning hajmiga va murakkabligiga, uning tezkor-tashkiliy tuzilmasining o'ziga xosligiga, qurilmalari tarkibiga, shaxsiy tarkibining mavjudligi va tayyorgarligiga mos holda tashkil qilinadi.

Tezkor-texnik xizmatning asosiy vazifalari quyidagilar:

– ATlarda barcha turdagi axborotlarni tasdiqlangan nazorat muddatlarida o'tishini ta'minlash;

– ATga berilgan chizma-buyruqlar (farmoyishlar) bilan ko'zda tutilgan aloqalarni o'z vaqtida va sifatli o'rnatilishini ta'minlash;

– o'rnatilgan aloqalarning axborot almashinishga doimiy shayligini ta'minlash;

– ATning aloqa va MTT vositalaridan mo'ljallanishi bo'yicha foydalanishga doimiy texnik shayligini ta'minlash;

– AT va uning elementlaridagi navbatchilikni rahbariy hujjatlar talablariga mos holda aniq olib borilishini tashkil qilish va ta'minlash.

ATlarda ushbu vazifalar tezkor va texnik tadbirlarni bajarish orqali hal etiladi.

Tezkor tadbirlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– aloqa bilan ta'minlash va aloqa tizimini faoliyat ko'rsatishi bo'yicha farmoyishlarni va buyruqnomalarni olishni hamda ularning bajarilishini tashkil qilishni;

– ATda navbatchilikni tashkil qilishni va navbatchilik olib borish jarayonida navbatchilar smenasini boshqarishni;

– buyruq, farmoyish va jangovar boshqaruvning boshqa komandalarini uzatishni (qabul qilishni), AT orqali barcha turdagi axborotlarning o'z vaqtida o'tishini ta'minlashni;

– aloqalarning, aloqa apparaturalari (vositalari), kanallari (liniyalari) va MTT vositalari holatini nazorat qilib borishni hamda ularni tiklash bo'yicha choralar ko'rishni;

– aloqa vositalari (apparaturalari) dan foydalanilganda aloqa va axborot xavfsizligini ta'minlashni;

– ATga yuklatilgan vazifalarni bajarilishi bo'yicha ma'lumotlarni yig'ishni, tahlil qilishni va umumlashtirishni hamda ularning hal qilinish sifatini yaxshilash bo'yicha amaliy tadbirlarni ishlab chiqishni;

– rahbariy hujjatlar bilan belgilab qo'yilgan hujjatlarni ishlab chiqishni va yuritishni.

Texnik tadbirlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– aloqa va MTT vositalariga o'z vaqtida va sifatli texnik xizmat ko'rsatishni, ta'mirlashni va ularning texnik holatini nazorat qilib borishni;

– texnik vositalar ekspluatatsiyasini va ta'mirlashni rejalashtirish va hisobini yuritishni;

– aloqa sifatining buzilishiga yoki yomonlashuviga, aloqa texnikasi va liniyalarining, MTT vositalarining nosozligiga sabab bo'luvchi omillarni o'z vaqtida aniqlashni va bartaraf etilishini;

- aloqa apparatura (vosita) lari, kanal (liniya) lari va MTT vositalari parametrlarini reja asosida tekshirilib borilishini hamda ularni ekspluatasion me'yorlarga keltirilishini;
- aloqa mulkning, MTT vositalarining belgilangan zaxiralarini yaratishni, ularning hisobini yuritishni va saqlashni;
- ATda texnik ekspluatasiya holati bo'yicha ma'lumotlarni yig'ilishni, umumlashtirishni va tahlil qilishni hamda uning sifatini yaxshilash bo'yicha amaliy tadbirlarni ishlab chiqishni;
- zarur ekspluatasion-texnik hujjatlarni ishlab chiqishni va yuritilishini;
- sarf qilingan va yo'qotilgan aloqa vositalari va boshqa mulk o'rnini o'z vaqtida to'ldirilib borilishini.

Aloqani o'rnatish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- kanal hosil qiluvchi apparaturani (stansiyani) ishga tayyorlash, yoqish, aloqaga kirish, o'lchash, kanallarni sozlash va to'g'rilash, kanallarni chetki apparatxonaga (stansiyaga) topshirish;
- chetki apparaturani to'g'rilash va sozlash, uni aloqa kanaliga qo'shish, aloqa ishi sifatini tekshirish.

Chizma-buyruqda ko'zda tutilgan aloqalarni o'rnatish AT navbatchi smenasi shaxsiy tarkibi tomonidan ATBN rahbarligida amalga oshiriladi.

Daladagi (harakatdagi) ATda rejalashtirilgan aloqalarni o'rnatishda rahbarlikni shtatdagi mansabdor shaxslar shaxsan va AT(ATE)BN orqali amalga oshiradilar.

Bunda **daladagi (harakatdagi) AT(ATE) BNga quyidagilar yuklatiladi:**

- aloqa o'rnatish bo'yicha vazifalarni aniqlashtirish va jangovar navbatchilikni qabul qilish;
- xizmat aloqasini o'rnatish va navbatchilikni qabul qilganligi haqida bo'ysunuvi bo'yicha doklad qilish;
- bog'lovchi liniyalarni sinovdan o'tkazish va ularni kanallarni uzatish uchun tarqatish bo'yicha JPlar navbatchi hisoblari harakatlarini boshqarish;
- aloqaga kirish, kanallarni sozlash va ularni chetki apparatxonalarga topshirish bo'yicha farmoyishlarni berish; aloqani o'rnatishda ishtirok yetayotgan JP(guruh, element, AT)lar o'rtasidagi harakatlarni muvofiqlashtirish;
- o'rnatilayotgan aloqalarning o'z vaqtidaligini va sifatini nazorat qilish;
- bajarilayotgan vazifalarni, ularni hal qilishni qiyinlashtirayotgan sabablarni va ko'rilgan choralarni tezkor-texnik hujjatlarda o'z vaqtida rasmiylashtirish;
- qo'shinlarni pinhona boshqarish va aloqa xavfsizligi talablarini bajarilishi ustidan qat'iy nazorat olib borish.

Aloqa holatining nazorati AT navbatchi smenasi mansabdor shaxslari tomonidan, aloqaning, kanal (liniya) larning holati va aloqa vositalarining ish holati haqidagi ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish va tahlil qilib borish **yo'li bilan olib boriladi.**

Ushbu ma'lumotlar quyidagilardan iborat:

- amaldagi barcha turdagi aloqaning yo'nalishlar bo'yicha ish rejimlari haqida (kim bilan, qanday turdagi va qanday vositalar bilan aloqa ta'minlanayotganligi, aloqaning buzilishsiz ishlash koeffitsiyenti (rus. koeffitsiyent ispravnoego deystviya KID));
- aloqadagi tanaffuslar, ularning sabablari, buzilish uchastkalari va aloqani tiklash bo'yicha ko'rilgan choralar haqida;
- aloqani o'rnatilishi (ochilishi, to'xtalishi) haqida;

- aloqa yo‘nalishlari bo‘yicha kanal (liniya) lar sozligi (nosozligi) haqida;
- radio-, radioreley, troposfera va kosmik aloqa vositalariga oldindan ko‘zlangan (ko‘zlanmagan) halaqitlarning ta‘siri haqida;
- aloqa liniyalari, kanallari va traktlari parametrlarining belgilangan ekspluatasion me‘yorlarga mos kelishi (mos kelmasligi) haqida;
- aloqa apparatura (vosita)lari va MTT vositalari buzilishlari (ishdan chiqishlari) tafsiloti va sabablari haqida, ularni boshqa ish rejimlariga o‘tkazilishi haqida.

Agarda doimiy (avtomatik) nazorat amalga oshirilmasa, simli (radioreley, troposfera, kosmik) **aloqa tekshiruvi** AT navbatchi smenasi shaxsiy tarkibi tomonidan (tezkor almashinuv bo‘lmagan hollarda) **har 30 daqiqada** amalga oshiriladi.

Agarda oxirgi aloqa tekshiruvidan 30 daqiqa o‘tgach yuqori ATdan aloqa tekshiruvi uchun komanda tushmasa, bo‘ysunuvchi AT yuqori ATni chaqirishga majbur. Aloqa tekshiruvi natijalari navbatchilikni olib borish jurnaliga (texnik yoki apparat jurnaliga) yozib boriladi va bo‘ysunuvi bo‘yicha doklad qilib boriladi.

Aloqaning buzilganligi va tiklanganligi haqida AT JP NHR zudlik bilan bo‘ysunuvi bo‘yicha bildirgi beradilar.

Aloqa buzilganda, birinchi navbatda, axborot almashinuvini aylanib o‘tuvchi yo‘nalishlar orqali ta‘minlash va aloqani rezervdagi apparaturalar (rezervdagi aloqa kanallari, liniyalari) yordamida zudlik bilan tiklash choralari ko‘riladi, so‘ngra esa buzilish uchastkalari aniqlanib, aniqlangan nosozlik(buzilish)larni bartaraf qilish tashkil qilinadi.

Buzilgan aloqani tiklash navbatchi smena shaxsiy tarkibi tomonidan, ATBN rahbarligida amalga oshiriladi. Jiddiy stansion va liniya buzilishlari bo‘lganda ularni tiklash AT navbatchi smenasi yoki ushbu maqsadlar uchun tuziladigan avariya-tiklash komandalari (bevosita AT boshlig‘i rahbarligida) tomonidan amalga oshiriladi.

Birinchi bo‘lim nazorat savollari

1. Aloqa tugunlarining tarifi.
2. O‘R QK aloqa tugunlarining tasniflanishi.
3. BP AT ga qo‘yilgan vazifalar.
4. ATning jangovar postlari.
5. AT ekspluatasiyasini va boshqarishni tashkil qilish.
6. AT elementlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik.
7. Daladagi (harakatdagi) ATlarini yoyish.
8. Tezkor-texnik xizmatning ta‘rifi, mazmuni va asosiy vazifalari.

II. ALOQA TUGUNLARIDA NAVBATCHILIKNI TASHKIL QILISH

2.1. Aloqa tugunlarida navbatchilik

ATlarda tunu-kun navbatchilik, odatda, shtatdagi shaxsiy tarkib bilan tashkil qilinadi. Aloqa boshlig'ining qaroriga ko'ra, ATlarda navbatchilikni olib borish uchun, boshqa aloqa harbiy qismlari (bo'linmalari) shaxsiy tarkibi ham jalb qilinishi mumkin. Qo'shimcha shaxsiy tarkibning jalb qilinishi garnizon boshlig'ining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

Navbatchilikni tashkil qilish uchun ATda quyidagi asosiy hujjatlar ishlab chiqiladi:

- navbatchilikni tashkil qilish haqida AT boshlig'i buyrug'i;
- navbatchilikni tashkil qilish chizmasi, navbatchi smena shaxsiy tarkibi hisobi bilan;
- navbatdagi smenaning navbatchilikka tushishi to'g'risida AT boshlig'i buyrug'i;
- AT navbatchi smenasi shaxslariga Yo'riqnomalar.

Navbatchilikni tashkil qilish haqida AT boshlig'i buyrug'i har yili chiqariladi.

Unda **quyidagilar ko'rsatiladi:**

– qo'shin (kuch) larni boshqarish manfaatlari uchun aloqa bilan ta'minlash bo'yicha ATga yuklatilgan vazifalar;

– AT elementlariga va JPlariga kundalik sharoitlarda va belgilangan jangovar shaylik darajalariga ko'tarilganda aloqa bilan ta'minlash bo'yicha vazifalar;

– navbatchi smenalar soni, ularning tarkibi va vazifalari;

– shaxsiy tarkibni mustaqil ravishda navbatchilikni olib borishga tayyorlash va ruxsat berish tartibi;

– shaxsiy tarkibni navbatdagi navbatchilikka tayyorlash va tushishi tartibi;

– navbatchilikning davomiyligi va olib borish rejimi;

– jangovar shaylikning turli darajalarida shaxsiy tarkibning, qurol-aslaha, aloqa va MTT vositalarining dastlabki holati;

– navbatchi smena shaxsiy tarkibining ruxsat etilmagan harakatlarini hamda navbatchilikni olib borish davomida avariya holatlarining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar;

– navbatchilikning olib borilishini nazorat qilish tartibi;

– yong'in xavfsizligi va xavfsizlik texnikasi bo'yicha tadbirlar;

– navbatchi smena shaxsiy tarkibining dam olish va ovqatlanish tartibi;

– navbatchilikni har tomonlama ta'minlash va uni olib borish uchun qulay sharoitlarni saqlash bo'yicha tadbirlar;

– navbatchilikni tashkillashtirish va olib borish tartibini belgilovchi boshqa masalalar.

Navbatdagi smenaning navbatchilikka tushishi haqidagi AT boshlig'i buyrug'i navbatchilikka tushishdan bir kun oldin chiqariladi.

Buyruqda **quyidagilar ko'rsatiladi:**

– navbatdagi smenaning tarkibi va vazifalari;

– navbatchilikka tushish sanasi, vaqti va uni olib borish davomiyligi;

– navbatchi smena shaxsiy tarkibining kiyim-bosh rusumi.

Navbatchilikka tushish haqidagi buyruqda navbatchi smenaning barcha shaxsiy tarkibi harbiy unvoni, familiyasi va ismi-sharifi, navbatchilikni olib boradigan JP raqamlari

va jangovar hisob tarkibidagi raqamlari ko'rsatilgan holda ko'rsatib o'tiladi. Buyruqlar navbatchi smenaning barcha shaxsiy tarkibiga yetkaziladi.

Navbatchi smena shaxslariga Yo'riqnomalarda navbatchi smena mansabdor shaxslarining va JP NHRining quyidagi holatlar bo'yicha harakatlari aniq qilib ko'rsatilishi lozim:

- navbatchilikni qabul qilish (topshirish);
- jangovar boshqaruvning buyruqlarini, farmoyishlarini va boshqa komandalarini uzatish (qabul qilish);
- barcha turdagi axborotlarning o'z vaqtida o'tishini ta'minlash;
- aloqani o'rnatish;
- aloqa va MTT vositalarini mo'ljallanishi bo'yicha foydalanishga doimiy shay holatda ushlab turish;
- buzilgan aloqalarni, aloqa va MTT vositalarini tiklash;
- AT, uning elementlari, JPlari yashovchanligi uchun kurashish (yong'in chiqqanda, suv bosganda, xonalar gazlanganda, tabiiy ofatlarda);

AT jangovar shaylikning belgilangan darajalariga keltirilganda.

AT navbatchi smenasi ATBP navbatchi hisobidan va AT elementlari navbatchi smenalaridan **iborat bo'ladi**. Har bir AT elementining navbatchi smenasi ATEBP navbatchi hisobidan va JPlar navbatchi hisoblaridan iborat bo'ladi.

AT navbatchi smenasi tarkibiga quyidagilar kirishi mumkin:

- ATBN;
- ATEBN;
- JPNH boshliqlari;
- jangovar boshqaruv signallarini uzatish (qabul qilish) apparatxonalari (postlari) radiotelegrafistlari (radiooperatorlari);
- uzatuvchi va qabul qiluvchi radiomarkazlar, radiobyurolar radiomexaniklari (radiotelegrafist, radiooperator, dispatcher, elektromontyor);
- aloqa va axborot xavfsizligi nazorati punkti mutaxassislari;
- axborot va telekommunikatsiya vositalari bo'yicha mutaxassislar;
- radioaloqaning texnik nazorati punkti va chastota-dispatcherlik posti radiomexaniklari;
- antenna-fider qurilmalari bo'yicha mutaxassislar;
- kosmik aloqa markazi (stansiyasi) mexaniklari;
- kanal hosil qilish markazi mexaniklari;
- kross mexaniklari;
- telefon aloqasi maxsus apparatxonalari mexaniklari;
- ATS mexaniklari;
- telefonistlar;
- telefon aloqasining chetki qurilmalariga xizmat ko'rsatish bo'yicha mutaxassislar;
- ma'lumotxona xizmati navbatchilari;
- ta'mirlash byurosi navbatchilari;
- telegraf, telekodli va faksimil aloqasi maxsus apparatxonalari mexaniklari;
- kanallarni va xabarlarni kommutatsiyalash markazi mutaxassislari;
- telegrafistlar;
- ekspeditorlar;

- choparlar;
- liniya qarovchilari;
- MTT tizimlariga xizmat ko'rsatish bo'yicha mutaxassislar (elektromexaniklar, akkumulatorchilar va b.);
- texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash guruhlari (postlari) mexaniklari.

AT JPlari NHRga tegishli tayyorgarlikdan o'tgan, mustaqil ravishda nabatchilikni olib borishga ruxsat etilgan, elektr xavfsizligi bo'yicha belgilangan kvalifikasion guruhga ega bo'lgan AT shaxsiy tarkibi tayinlanadi.

2.2. ATda shaxsiy tarkibni mustaqil ravishda navbatchilikni olib borishga tayyorlash va ruxsat berish

Shaxsiy tarkib, mustaqil navbatchilikka birinchi marta tushishdan oldin, tayyorgarlikdan o'tadi, u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- bo'linma tarkibida jangovar tayyorgarlik dasturi bo'yicha boshlang'ich o'qitish davri (alohida hollarda navbatchi smena tarkibida), davomiyligi va mazmuni harbiy xizmatchi, ishchi va xizmatchilarning maxsus tayyorgarligi darajasiga qarab AT boshlig'i tomonidan aniqlanadi. Boshlang'ich o'qitish davri tugagach, "O'R QK aloqaning texnik ta'minoti bo'yicha Qo'llanma"da (rus. RTOS-2003) belgilangan tartib bo'yicha, shaxsiy tarkibning aloqa texnikasida, QABT va MTT vositalarida mustaqil ishlashi uchun ruxsat beriladi;

- AT boshlig'i rejasi bo'yicha, AT elementlari boshliqlari rahbarligida va bevosita navbatchilikni olib borayotgan NHR nazorati ostida ATda navbatchi smena tarkibidagi stajirovka o'tkaziladi. Har bir stajyor AT boshlig'i buyrug'i bilan JPNH tarkibiga kiritiladi, bunda uning stajirovkasini nazorat qilib boruvchi NHR ham ko'rsatiladi. Stajirovkaning davomiyligi va muddati AT boshlig'i tomonidan ikki haftadan ikki oygacha o'rnatiladi.

Stajirovka davrida AT shaxsiy tarkibi quyidagilarga majbur:

- AT tezkor-texnik hujjatlarini egallab turgan lavozimi hajmida o'rganishi;
- AT (AT elementi) tomonidan hal qilinadigan vazifalarni o'rganishi;
- yuklatilgan vazifalarni o'rganishi va ularni bajarish bo'yicha aniq ko'nikmalar hosil qilishi;
- xizmat ko'rsatiladigan texnika bo'yicha bilimlarini chuqurlashtirishi hamda aloqani ta'minlash bo'yicha aloqa va MTT apparaturalarida (vositalarida) ishlash amaliy ko'nikmalarini egallashi;
- "Qoidalar"ning, AT (ATE) da ishlab chiqilgan tezkor-texnik xizmat bo'yicha rahbariy hujjatlarning asosiy talablarini chuqur o'zlashtirishi.

ATBNning stajirovkasi AT boshlig'i tomonidan, ATEBN stajirovkasi esa – ATE boshlig'i tomonidan tashkil qilinadi va o'tkaziladi.

Aloqa va MTT texnikalarida mustaqil ishlash uchun ruxsat ololmagan shaxsiy tarkib ATda navbatchi smena tarkibida stajirovkaga qo'yilmaydi.

2.3. ATda mustaqil ravishda navbatchilikni olib borishga ruxsat olish uchun sinovlarni topshirish

ATda mustaqil ravishda navbatchilikni olib borishga ruxsat berish uchun sinovlar AT boshlig‘i buyrug‘i bilan tayinlangan komissiya tomonidan qabul qilinadi.

Komissiya shaxsiy tarkibdan quyidagilarni tekshiradi:

- JP NHRning vazifalari va majburiyatlarini bilishini;
- “Qoidalar”ni va navbatchi smena shaxslariga yo‘riqnomalarni bilishini;
- aloqa va axborot xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha talablarni hamda xavfsizlik texnikasi va yong‘in xavfsizligi qoidalarini bilishini;
- mustaqil ravishda navbatchilikni olib borish, avariya holatlarda hamda aloqa bilan ta‘minlash bo‘yicha, aloqa va MTT apparaturalarida (vositalarida) ishlash bo‘yicha, barcha turdagi axborotlarni o‘tishini ta‘minlash bo‘yicha va uskunalarni ekspluatatsiyasi bo‘yicha o‘rnatilgan me‘yorlarini bajarish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarini.

Mustaqil ravishda navbatchilikni olib borishga ruxsat berish uchun sinovlar natijalari bo‘yicha **dalolatnoma** tuziladi. Dalolatnoma, har bir tekshiriluvchi bo‘yicha baholar va xulosalar bilan, unga ruxsat etiladigan JP ko‘rsatilgan holda, AT boshlig‘iga tasdiqlash uchun taqdim etiladi.

Tasdiqlangan dalolatnomaga asosan, ATning tegishli JPida mustaqil ravishda navbatchilikni olib borishga ruxsat berish uchun AT boshlig‘i buyrug‘i chiqariladi.

Ishchi va xizmatchilarga mustaqil ravishda navbatchilikni olib borish uchun ruxsat berish tartibini, yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan tartibga mos ravishda, **Mehnat haqidagi qonunlarni** va **tibbiyot xulosalarini** hisobga olgan holda, AT boshlig‘i belgilaydi.

Navbatchilikni olib borishdagi tanaffus **uch oydan oshgan** mutaxassislarning mustaqil ravishda navbatchilikni o‘tashga tayyorligini aniqlash uchun **takroriy tekshiruv**ga jalb etiladilar.

Mutaxassisni boshqa bir JPda mustaqil ravishda navbatchilikni o‘tashga tayyorlash va ruxsat berish tartibi yuqorida ko‘rsatilgan tartibda o‘tkaziladi. Bunda, uning stajirovkasi davri ushbu JPga birinchi marta kelganlarinikiga nisbatan qisqartirilishi mumkin.

2.4. Navbatchi smenalar shaxsiy tarkibini ATda navbatdagi navbatchilikni o‘tashga tayyorlash

Navbatchi smenalar shaxsiy tarkibini navbatdagi navbatchilikni o‘tashga tayyorlash JPlar navbatchi hisoblari tarkibida, AT (ATE) boshlig‘i tomonidan belgilangan tartibda, AT(ATE)da ishlab chiqiladigan savollar ro‘yxatiga va aloqa boshlig‘i tomonidan tasdiqlangan “AT navbatchi smenasi shaxsiy tarkibini tayyorlash uslubiyati”ga asosan, har smena bilan haftasiga kamida bir marotaba o‘tkaziladi.

Navbatchi smenalar shaxsiy tarkibini tayyorlash jihozlangan sinflarda va aloqa o‘quv markazlarida, o‘quv (o‘quv-jangovar) texnikalardan, ko‘rgazmali qo‘llanmalardan va yo‘riqnomalardan foydalanilgan holda, guruhiy mashg‘ulotlar, individual kompleks mashqlar usullarida olib boriladi.

Savollar ro‘yxati ATE boshlig‘i tomonidan tuziladi hamda har bir toifadagi mutaxassislar uchun (ularning tayyorlanganligi va navbatchilikning o‘ziga xosliklarini hisobga olgan holda) navbatchilikni olib borishda muhim bo‘lgan va yetarli darajada chuqur o‘zlashtirilmagan aniq savollarni o‘z ichiga oladi.

Navbatchi smena shaxslarini navbatchilikni o'tashga tayyorlashda quyidagilar bo'yicha bilimlari tekshirilishi shart:

- funksional majburiyatlari, JP NHRlari tomonidan aloqani ta'minlashda alohida operatsiyalarni bajarish bo'yicha amaldagi me'yorlar va yo'riqnomalar talablari;
- barcha turdagi axborotlarning tasdiqlangan nazorat o'tish muddatlari;
- aloqa apparaturalari (vositalari), kanallari, traktlari, liniyalari hamda QABT va MTT vositalari uchun belgilangan ekspluatasion me'yorlar;
- xavfsizlik choralari talablari.

Navbatchi smena shaxslarining navbatchilikni o'tashga tayyorgarligi va ularni o'z vaqtida ATga jo'natilishi uchun o'z bo'ysunuvida ushbu shaxslar bo'lgan ATE boshliqlari (aloqa bo'linmalari komandirlari) javobgardir.

2.5. Navbatchi smena shaxslariga yo'riqnoma berish va navbatchilikka tushish tartibi

Navbatchilikka tushishdan oldin navbatchi smena shaxslariga yo'riqnoma berish AT boshlig'i tomonidan tasdiqlangan uslubda o'tkaziladi, unda mas'ul shaxslar; yo'riqnomani o'tkazish joyi, vaqti, davomiyligi va tartibi; tushadigan navbatchi smena shaxslariga tekshirish, aniqlashtirish va yetkazish uchun savollari ro'yxati belgilab qo'yiladi.

ATBNga navbatchilikka tushishdan oldin yo'riqnoma berishni va bilimlarini tekshirishni AT boshlig'i yoki uning o'rinbosari o'tkazadi, ATEBNga esa – ATE boshliqlari yoki ularning o'rinbosarlari o'tkazadilar.

Yo'riqnoma berish davomida AT (ATE) boshlig'i:

- ATBNning e'tiborini jangovar boshqaruv signallari va boshqa axborotlarning tasdiqlangan nazorat muddatlarida o'tishini ta'minlashga qaratadi;
- ATBNga aloqa chizmasidagi hamda o'ta muhim aloqalarning, QABT va MTT ish rejimlaridagi o'zgarishlarni yetkazadi;
- navbatchi smena shaxsiy tarkibi harakatlaridagi kamchiliklarni tahlil qiladi hamda ularni takrorlamaslik choralari ko'rsatadi.

ATning (ATEning) navbatdagi navbatchi smenasi butun shaxsiy tarkibiga **bevosita navbatchilikka tushishdan oldingi yo'riqnoma** ATBN (ATEBN) tomonidan o'tkaziladi.

Yo'riqnoma o'tkazishda harbiy xizmatchilarning tashqi ko'rinishi va ekipirovkasi, ularning navbatchilikni olib borishga tayyorlik darajasi tekshiriladi, oldinda turgan navbatchilik bo'yicha vazifalar qo'yiladi va ko'rsatmalar beriladi, shundan so'ng navbatchilikka tushish haqidagi buyruq o'qib yeshittiriladi.

2.6. ATda navbatchilikni olib borish

Shaxsiy tarkib, JPga kelishi bilan, navbatchilikni qabul qiladi, bunda quyidagilarni tekshiradi:

- amaldagi aloqaning holati;
- aloqa va QABT apparaturalari (vositalari), kanallari (liniyalari) hamda MTT vositalari va mulkning mavjudligi, sozligi va ish qobiliyati;
- JP uchun tezkor-texnik xizmat bo'yicha belgilangan hujjatlarining mavjudligi;
- o'tgan smenada kelib tushgan buyruqnoma va farmoyishlarning bajarilganligi;
- xizmat aloqasining, signalizasiya va yoritgichlarning sozligi;
- himoya va yong'inni o'chirish vositalarining holati;
- JPning holati (akkumulyator xonalari, stansiyalar va h.k.).

Navbatchilikni qabul qilish-topshirish paytida kelib tushgan signal (komanda), buyruq, farmoyishlarni qabul qilish (uzatish) va manziliga yetkazish uchun hamda soʻzlashuvlarni taqdim etib berish uchun navbatchilikni topshirayotgan NHR javob beradi.

JP NHRlari navbatchilikni qabul qilgani (topshirgani) toʻgʻrisida navbatchi hisob boshligʻiga bildirgi beradilar va navbatchilikni olib borish jurnaliga (texnik yoki apparat jurnaliga) vaqtini koʻrsatgan holda yozib qoʻyadilar.

Navbatchi smena shaxsiy tarkibi navbatchilikni qabul qilganliklari (topshirganliklari) toʻgʻrisida boʻysunuvi boʻyicha bildirgi beradilar va navbatchilikni olib borish jurnaliga vaqtni va aniqlangan kamchiliklarni koʻrsatgan holda yozib qoʻyadilar.

ATBN smena shaxsiy tarkibining navbatchilikni qabul qilgani (topshirgani) toʻgʻrisida AT boshligʻiga va AT boʻysunadigan aloqani boshqaruv punktiga doklad qiladi. Navbatchilikni qabul qilish va topshirish uchun ketadigan vaqt AT boshligʻi tomonidan belgilanadi.

Navbatchilikni qabul qilgan vaqtdan boshlab, JP NHR aloqaning toʻgʻri ishlashi va talab qilingan sifatini taʼminlab berish uchun, axborotning tasdiqlangan nazorat vaqtlarida oʻtishini taʼminlash uchun, hujjatlarning saqlanishi uchun, JP moddiy qismlarining va barcha uskunalarning sozlik holati va jangovar shayligi uchun javob beradi.

AT navbatchi smenasi shaxsiy tarkibi **navbatchilikni olib borish davomida quyidagilarga majbur:**

- oʻrnatilgan nazorat muddatlarida talab qilingan sifatda jangovar boshqaruvning buyruq, farmoyishlarini uzatish (qabul qilish) ni, tezkor axborot almashinuvini, va mansabdor shaxslarning telefon soʻzlashuvlarini olib borishini taʼminlashga;

- berilgan aloqalarning meʼyoriy vaqtlarda va talab qilingan sifatda oʻrnatilishini, ularning barcha turdagi axborotlarni almashinuviga doimiy shayligini taʼminlashga;

- aloqa sifatining buzilishiga yoki yomonlashuviga, aloqa texnikasining, liniyasining, masofadan boshqaruv liniyalarining, QABT va MTT vositalarining nosozligiga olib kelishi mumkin boʻlgan holatlarni oʻz vaqtida bartaraf etishga;

- hujjatli xabarlarini uzatishda, telefon soʻzlashuvlarini taʼminlashda yoʻl qoʻyilgan barcha tutilishlar va buzilishlar haqida, hamda ularning kelib chiqish sabalari, shuningdek ushbu sabablarni bartaraf etish boʻyicha takliflar haqida zudlik bilan boʻysunuvi boʻyicha bildirgi berishga;

- aloqa apparatura (vosita) lari, kanallari, trakt (liniya) larining, QABT va MTT vositalarining moʻljallanishi boʻyicha ishlatilishiga doimiy shayligini taʼminlashga, ularning parametrlarini ekspluatasion meʼyorlar doirasida ushlab turishga;

- aloqalarning, aloqa apparatura (vosita) lari va kanal (liniya) larining, QABT va MTT vositalarining holatini samarali nazorat qilib borishga, ularni tiklash boʻyicha kechiktirib boʻlmaydigan choralarni koʻrishga;

- reja boʻyicha aloqa apparatura (vosita) lari va kanal (liniya) lariga, QABT va MTT vositalariga oʻz vaqtida va yuqori sifatda texnik xizmat koʻrsatishni bajarishga;

- MTTning berilgan ish rejimlarini taʼminlashga;

- aloqa va QABT vositalaridan foydalanishda aloqa xavfsizligini va axborotlarning oʻtishini hamda maxfiylik rejimini taʼminlash boʻyicha talablarga qatʼiy rioya qilishga, aloqa xavfsizligini va axborot oʻtishini buzishga boʻlgan urinishlarga har qanday yoʻl bilan boʻlsa ham yoʻl qoʻymaslikka;

- sutka davomida 4 marta (01:00, 07:00, 13:00, 19:00 shk) aniq vaqt signallarini qabul qilish va JPda o‘rnatilgan soat ko‘rsatkichlari bilan taqqoslashni ta‘minlashga;
- xavfsizlik texnikasi va yong‘in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya etishga;
- o‘rnatilgan hujjatlarni yuritib borishga;
- JPda namunali tartib va tozalikni saqlab borishga.

Navbatchi smena shaxslariga **navbatchilikni olib borish davomida quyidagilar ta‘qiqlanadi:**

- kimligidan qat‘iy nazar, biron bir kishiga, qisqa vaqtga bo‘lsa ham, ATBN (ATEBN) ruxsatisiz va belgilangan shakldagi hujjatlarga yozmasdan navbatchilikni olib borish bo‘yicha majburiyatlarini bajarib turishni, aloqa va QABT texnika (vosita) larini hamda hujjatlarni topshirish;

- boshqa ishlar bilan shug‘ullanish hamda aloqaning texnik vositalari orqali navbatchilikni olib borish bo‘yicha majburiyatlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lmagan so‘zlashuvlarni olib borish;

- ATBN (ATEBN) ruxsatisiz aloqa, QABT va MTT apparatura (vosita) larini yoqish (o‘chirish), ish rejimini o‘zgartirish, shuningdek ularga texnik xizmat ko‘rsatish;

- ATBN (ATEBN) ruxsatisiz radiouzatuvchi vositalarni ajratilmagan chastotalarda nurlanishga (uzatishga) qo‘shish (o‘chirish), sozlash;

- JPda radioeshittirishlarni tinglash, badiiy adabiyotlarni va davriy nashrlarni o‘qish, uxlash, chekish, ovqatlanish.

Navbatchi smena shaxslariga navbatchilikni olib borish bo‘yicha majburiyatlarini bajarish bilan **bog‘liq bo‘lmagan buyruq va farmoyishlar berish ta‘qiqlanadi.**

Ushbu “Qoidalar”ning talablarini bajarmayotgan, navbatchilikni olib borish qoidalarini, harbiy va mehnat intizomini, aloqa va axborot xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha talablarni, aloqa, QABT va MTT vositalarini ekspluatatsiya qilish qoidalarini, xavfsizlik texnikasi qoidalarini buzgan navbatchi smena shaxslari navbatchilikni olib borishdan chetlatilishlari mumkin. Navbatchi smena shaxslarini navbatchilikni olib borishdan **chetlatish huquqiga** AT boshlig‘i, u yo‘q bo‘lganda esa – ATBN egadir.

ATE boshlig‘i (bo‘linma komandiri) navbatchilikni olib borishdan chetlatilgan NHRni, navbatchilikka tushish uchun belgilangan tartibga rioya qilgan holda, boshqa shaxs bilan zudlik bilan almashtirishni ta‘minlashga majbur.

Navbatchi smenaning aybdor shaxslari, yo‘l qo‘ygan buzilishning og‘irligi va oqibatlariga qarab, amaldagi qonunchilikka binoan intizomiy yoki boshqa turdagi javobgarlikka tortiladilar.

AT (ATE) mansabdor shaxslari navbatchi smena shaxslarining ruxsat etilmagan harakatlarini oldini olish bo‘yicha maqsadli ish olib borishlari lozim.

Buning uchun AT boshlig‘i navbatchi smena shaxslarining ruxsat etilmagan harakatlarini oldini olish bo‘yicha **tadbirlar ro‘yxatini** ishlab chiqadi, unda **quyidagilar ko‘rsatiladi:**

- aloqa, QABT va MTT vositalarini yoqish (o‘chirish), ish rejimlarini o‘zgartirish tartibi;

- AT navbatchi smenasi tomonidan ushbu ro‘yxatdagi tadbirlarni bajarish tartibi va bajarilishini nazorat qilib borish davriyligi hamda ruxsat etilmagan harakatlarning oldini olishni ta‘minlaydigan boshqa tadbirlar.

Ruxsat etilmagan harakatlarga yo‘l qo‘ymaslik va ularning oldini olish bo‘yicha tadbirlarning bajarilishi uchun ATBN (ATEBN) va JP NH boshliqlari **javobgardirlar**.

Navbatchi smena(hisob)larning qo‘yilgan vazifalarni bajarishga tayyorligini aniqlash, navbatchilikni olib borish sifatini oshirish, shuningdek navbatchi smena shaxslari ishida buzilishlarning oldini olish maqsadida **navbatchilik olib borilishini tekshirish** tashkil qilinadi.

Navbatchilik olib borilishini tekshirish navbatchilikni olib borishning yuqori sifatini kafolatlaydigan va navbatchi smena(hisob)ga yuklatilgan vazifalarning to‘la hal etilishini ta‘minlaydigan davriylikda rejalashtiriladi va o‘tkaziladi:

- aloqa boshlig‘i – bir yilda kamida bir marta;
- AT boshlig‘i – kvartalda kamida bir marta;
- AT boshlig‘i o‘rinbosari – oyiga kamida bir marta;
- ATE boshlig‘i – oyiga kamida bir marta;
- ATE boshlig‘i o‘rinbosari – oyiga kamida ikki marta;
- bo‘linma (apparaxona) boshlig‘i – haftasiga kamida bir marta;
- ATBN (ATEBN) – navbatchiligi davomida kamida ikki marta, shundan kamida bir marta – tunda.

Navbatchilikni olib borishda quyidagilar tekshiriladi:

– axborotlar o‘tishining nazorat vaqtlariga rioya qilinishi va JP NHR tomonidan uni qayta ishlash sifati;

– muhim yo‘nalishlarda aloqaning holati hamda asosiy va rezerv telefon va telegraf kanallarining alohida elektr xarakteristikalarini tanlab tekshirish orqali ularning ishlash sifati;

– navbatchi smena tarkibi va uning tasdiqlangan hisobga mosligi;

– tezkor-texnik xizmat bo‘yicha belgilangan hujjatlar mavjudligi va ularni yuritish sifati;

– JP NHR tomonidan aloqani va axborot o‘tishini ta‘minlash bo‘yicha vazifalarni, shuningdek AT (ATE) jangovar shaylikning belgilangan darajalariga keltirilganda va avariya holatlarda aniq majburiyatlarini va harakatlarini (vaqt ko‘rsatkichlari bilan) bilishi;

– aloqa, QABT va MTT vositalarida ishlash va aloqa bilan ta‘minlash bo‘yicha amaldagi me‘yorlarni bilishi va bajarishi;

– JP NHR tomonidan yuklatilgan majburiyatlarni bajarilishining to‘laligi va sifati;

– NHRning buzilgan aloqani tiklash bo‘yicha harakatlari;

– JP NHRning texnik vositalar va inshootlarning yashovchanligini ta‘minlash bo‘yicha harakatlari;

– navbatchi smena shaxsiy tarkibi tomonidan aylanib o‘tuvchi aloqa yo‘nalishlarini bilishi hamda ular orqali aloqani ta‘minlay olish ko‘nikmalari;

– JP NHR tomonidan aloqa apparatura(vosita)lari va kanal(liniya)lari, QABT va MTT vositalari parametrlari uchun o‘rnatilgan ekspluatasion me‘yorlarni bilishi;

– aloqa va axborot xavfsizligini ta‘minlash, maxfiylik rejimiga rioya etish bo‘yicha talablarning bajarilishi;

– aloqa apparatura(vosita)lari va kanal(liniya)lariga, QABT va MTT vositalariga texnik xizmat ko‘rsatishning o‘z vaqtida bajarilishi va sifati;

- JP NHR tomonidan xavfsizlik texnikasi va yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya etilishi;
- JP NHR bilan buzilgan aloqani tiklash, yangi aloqa tashkil qilish, AT yashovchanligini ta‘minlash bo‘yicha mashqlarning o‘tkazilishi;
- MTT vositalarining holati va ishlatishga shayligi;
- rezervdagi aloqa apparatura(vosita)lari va kanal(liniya)larining, avtonom elektr ta‘minotining qo‘llanishga shayligi;
- navbatchi smena shaxsiy tarkibi tomonidan AT(ATE)ni qo‘riqlash va himoya qilish bo‘yicha harakatlarini bilishi;
- harbiy xizmatchilarning tashqi ko‘rinishi;
- JP, xona(apparatxona)larning tutilishi, tozalik va tartibga rioya qilinishi.

ATda **navbatchilik olib borilishini tekshirish oylik rejasi** tuziladi, unda kim tomonidan, qachon va nimalar tekshirilishi belgilab qo‘yiladi. **Tekshirish natijalari** tekshirishni o‘tkazgan mansabdor shaxs tomonidan ATBN(ATEBN)ning navbatchilikni olib borish jurnaliga (bildiruvlar jurnaliga) yozib qo‘yiladi, unda aniqlangan kamchiliklar va ularni bartaraf etish muddatlari ko‘rsatiladi.

Ko‘rsatilgan barcha kamchiliklar to‘g‘risida ATBN (ATEBN) bevosita boshlig‘iga doklad qiladi, u ularni bartaraf etish bo‘yicha choralar ko‘rishga majbur.

Navbatchi smena shaxsiy tarkibi tomonidan **navbatchilikni olib borish yakunlari** quyidagicha o‘tkaziladi:

- ATBN (ATEBN) tomonidan – navbatchi hisoblar smenasini almashtirish paytida, har bir mutaxassisga to‘rt balli tizim bo‘yicha personal baho berib;
- ATE boshlig‘i tomonidan – har haftada.
- ATlarda doimiy ravishda navbatchilikni olib borish tahlili olib boriladi, unda uning sifatini oshirishga qaratilgan amaliy tadbirlar aniqlab beriladi. Navbatchilikni olib borish tahlili natijalariga bo‘yicha AT boshlig‘i har oyda buyruq chiqaradi.

Ikkinchi bo‘lim nazorat savollari

1. Aloqa tugunlarida navbatchilik.
2. AT navbatchi smenasi tarkibi.
3. ATda shaxsiy tarkibni mustaqil ravishda navbatchilikni olib borishga tayyorlash va ruxsat berish.
4. Navbatchi smena shaxslariga yo‘riqnoma berish va navbatchilikka tushish tartibi
5. ATda navbatchilikni olib borish
6. Navbatchilikni tekshirish.

III. ALOQA TUGUNLARIDA JAVOBGAR SHAXSLARNING MAJBURIYATLARI

3.1. Aloqa tuguni navbatchi smenasi shaxslarining axborotning o‘z vaqtida o‘tishini ta’minlash bo‘yicha majburiyatlari

ATBN quyidagilarga majbur:

– barcha turdagi axborotlarning belgilangan nazorat muddatlarida o‘tishini ta’minlash bo‘yicha AT navbatchi smenasi shaxslarining harakatlarini boshqarishga va belgilangan davriylikda nazorat qilib borishga, bunda jangovar boshqaruv signallarining va o‘ta muhim axborotlarning o‘tishiga alohida e’tiborni qaratishga;

– ATEBN va axborotning o‘tishini nazorat qilish bo‘yicha navbatchiga tegishli aloqa yo‘nalishlarini tayyorlash (ochish) haqida, o‘ta muhim hujjatli xabarlarni uzatish (qabul qilish), so‘zlashuvlarni ta’minlash uchun JPNHRni, aloqa va QABT vositalarini tayyorlash haqida o‘z vaqtida ko‘rsatmalar berib borishga;

– asosiy yo‘nalishlarda aloqa buzilganda hujjatli xabarlarni almashinishni va telefon so‘zlashuvlarini taqdim etishni aloqaning aylanib o‘tuvchi yo‘nalishlari orqali ta’minlashga;

– hujjatli xabarlar almashinishi va telefon so‘zlashuvlari soni o‘sishi kutilayotgan aloqa yo‘nalishlarida JPNH tarkibini kuchaytirishga;

– jangovar boshqaruv signallarining, o‘ta muhim axborotlarning o‘tishi ushlanib qolishi sabablarini aniqlashtirishga, ularni bartaraf etish bo‘yicha zudlik bilan choralar ko‘rishga, bu haqda AT boshlig‘iga va aloqani boshqarish punkti navbatchi ofiseriga bildiruv berishga;

– belgilangan muddatlarda aloqa xizmati ko‘rsatishni to‘xtatish (o‘zgartirish), MTTni o‘chirish orqali aloqa, QABT va MTT vositalariga rejalashtirilgan texnik xizmat ko‘rsatishni o‘tkazish bo‘yicha farmoyishlar berishga.

Daladagi (harakatdagi) ATBN ATE boshliqlaridan yoki yaxshiroq tayyorgarlikka ega bo‘lgan daladagi AT ofiserlaridan (daladagi ATni yoyayotgan aloqa qismi, bo‘linmasi ofiserlaridan) tayinlanadi hamda u AT boshlig‘iga (aloqani boshqarish punkti navbatchisiga) bo‘ysunadi.

Daladagi (harakatdagi) ATBN quyidagilar uchun javob beradi:

– uzluksiz aloqa bilan ta’minlash uchun;

– AT navbatchi smenasining jangovar navbatchilikni o‘tashi uchun;

– jangovar boshqaruv signallarining, barcha turdagi axborotlarning belgilangan muddatlarda o‘z vaqtida o‘tishi uchun;

– qo‘mondonlikka va boshqa mansabdor shaxslarga amaldagi me‘yorlarga mos holdagi telefon so‘zlashuvlarini ta’minlash uchun;

– texkor-texnik xizmat hujjatlarining yuritilishi uchun.

Axborotning o‘tishini nazorat qilish bo‘yicha navbatchi quyidagilarga majbur:

– axborotlarning belgilangan nazorat vaqtlarida o‘tishini ta’minlashga, ularning o‘z vaqtida manziliga topshirilishini kuzatishga, qo‘mondonlikka manzillanib qabul qilingan hujjatli axborotlarning sifatini shaxsan tekshirishga;

– boshqaruv punkti mansabdor shaxslariga telegraf kanallari orqali so‘zlashuvlarni ta’minlanishini nazorat qilishga;

– aloqa yo‘nalishlari bo‘yicha axborot oqimini ularning shoshilinchiligi va soniga bog‘liq holda tartibga solib turishga (boshqarib turishga);

- asosiy yoʻnalishlarda aloqa buzilganda axborotlarning uzatilishini aloqaning aylanib oʻtuvchi yoʻnalishlari orqali taʼminlashga;
- axborotlarni uzatishda (qabul qilishda) navbatga rioya qilinishini va ularning belgilangan oʻtish muddatlariga rioya qilinishini kuzatib borishga;
- niqoblovchi almashinuv reja-grafigiga asosan ekspedisiyaga niqoblovchi radiogrammalarni topshirishga, ularning rasmiylashtirilishini va oʻtishini nazorat qilishga;
- boshqaruv punkti tezkor navbatchisi va shifrlash organi bilan uzviy hamkorlikni ushlab turishga;
- ATEBNlarni qabul qilinishi kutilayotgan jangovar boshqaruv signallari va oʻta muhim axborotlar haqida oldindan ogohlantirishga;
- shifrlash organini ATga oʻta muhim hujjatli axborot kelganligi haqida ogohlantirishga;
- aloqaning holatini hamda uning axborotni uzatishga (qabul qilishga) va soʻzlashuvlarni taʼminlashga shayligi darajasini, shuningdek aloqaning aylanib oʻtuvchi yoʻnalishlari holatini doimo bilishga;
- navbatchi ekspeditorlarga shaxsan yoʻriqnoma berishga va ularning ishini nazorat qilib borishga;
- jangovar boshqaruv signallarini, oʻta muhim axborotlarni uzatishdagi (qabul qilishdagi) ushlanishlar sababini aniqlashga, ular haqida ATBNGa va aloqani boshqarish punkti navbatchi ofiseriga bildiruv berishga;
- oʻz boshqaruv punkti manzillari roʻyxatidagi oʻzgarishlar haqida yuqori turuvchi AT navbatchi smenasi shaxslariga oʻz vaqtida xabar berishga;
- oʻta muhim axborotlarning oʻtishi hisobini yuritishga.

Telefon soʻzlashuvlarini taʼminlanishi nazorati boʻyicha navbatchi quyidagilarga majbur:

- telefon soʻzlashuvlarini olib borish uchun aloqa vosita(kanal)larini belgilangan muddatlarda taqdim yetilishini taʼminlashga;
- aloqa yoʻnalishlari boʻyicha telefon soʻzlashuvlarini taqdim etish navbatini ularning shoshilinchiligi va buyurtmalarning soniga bogʻliq holda aniqlashga;
- asosiy yoʻnalishlarda aloqa buzilganda telefon soʻzlashuvlarini olib borishni aloqaning aylanib oʻtuvchi yoʻnalishlari orqali taʼminlashga;
- telefon soʻzlashuvlarini taqdim etishda belgilangan navbatga amal qilinishini kuzatib borishga;
- qoʻmondonlikning soʻzlashuvi kutilayotgani haqida ATEBNlarni oldindan ogohlantirishga, bunday soʻzlashuvlarning taʼminlanishini shaxsan nazorat qilishga va bu haqida axborotlarning oʻtishi nazorati boʻyicha navbatchiga bildiruv berishga;
- aloqaning holatini va uning telefon soʻzlashuvlarini taʼminlash uchun shaylik darajasini, shuningdek aloqaning aylanib oʻtuvchi yoʻnalishlari holatini doimo bilishga;
- navbatchi telefonistlarga shaxsan yoʻriqnoma berishga hamda ularning ishiga rahbarlik qilishga;
- telefon soʻzlashuvlarini taqdim etishdagi ushlanishlar yoki umuman taʼminlanmaganligi sabablarini aniqlashga, bular haqida ATBN va axborotlarning oʻtishi nazorati boʻyicha navbatchiga bildiruv berishga;
- oʻz boshqaruv punkti abonentlari roʻyxatidagi oʻzgarishlar haqida yuqori turuvchi AT navbatchi smenasining tegishli shaxslariga oʻz vaqtida xabar berishga.

ATEBN quyidagilarga majbur:

– jangovar boshqaruv signallarining, barcha turdagi axborotlarning belgilangan nazorat muddatlarida o‘tishini ta’minlash bo‘yicha, hamda aloqaning, aloqa, QABT va MTT vositalarining, aloqa kanal(liniya)larining barqaror ishlashini ta’minlash bo‘yicha AT elementi navbatchi smenasi harakatlariga rahbarlik qilishga;

– jangovar boshqaruv signallari, o‘ta muhim axborotlar qabul qilinganligi va uzatilganligi haqida ATBNga (axborotlarning o‘tishi nazorati bo‘yicha navbatchiga) bildiruv berishga;

– jangovar boshqaruv signallarini, o‘ta muhim axborotlarni uzatish (qabul qilish) uchun va qo‘mondonlikka so‘zlashuvlarni ta’minlash uchun aloqa(apparatura, kanallar)ning shayligini shaxsan tekshirishga;

– barcha turdagi axborotlarni uzatish (qabul qilish) bo‘yicha JP NHRlari harakatlarini belgilangan davriylikda nazorat qilishga;

– aloqa yo‘nalishlari yuklamasiga (nagruzka) qarab, AT elementiga kelib tushayotgan hujjatli axborotlarni JP(stansiya)larga taqsimlanishiga rahbarlik qilishga;

– qabul qilingan hujjatli axborotni ekspeditsiyaga (oluvchiga) o‘z vaqtida yetkazilishini kuzatishga;

– aloqa yo‘nalishlarida yuklama birdaniga oshib ketganda ularni boshqa (kamroq yuklamadagi) aloqa yo‘nalishlari mutaxassislari hisobidan kuchaytirishga;

– jangovar boshqaruv signallarining, o‘ta muhim axborotlarning ushlanishi, qo‘mondonlik so‘zlashuvlari ta’minlanmaganligi, aloqa va axborot xavfsizligining, maxfiylik rejimining buzilishi sabablarini aniqlashga;

– jangovar boshqaruv signallarining, o‘ta muhim axborotlarning barcha ushlanishlari haqida ATBNga (axborotlarning o‘tishi nazorati bo‘yicha navbatchiga) bildiruv berishga.

Navbatchi ekspeditor quyidagilarga majbur:

– kelib tushgan (chiquvchi, kiruvchi) hujjatli axborotlarni tegishli jurnallarda hisobga olishga;

– hujjatli axborotlarni uzatish uchun JPlarga jo‘natishdan oldin oluvchilar bilan aloqa holatini aniqlab olishga, va agar aloqa yo‘q bo‘lsa hujjatli axborotni aloqaning aylanib o‘tuvchi yo‘nalishlari orqali uzatish bo‘yicha choralar ko‘rishga;

– qo‘mondonlikka manzillanib qabul qilingan hujjatli axborotlar sifatini sinchiklab tekshirishga, ularning kelib tushganligi haqida ATBNga va axborotlarning o‘tishi nazorati bo‘yicha navbatchiga bildiruv berishga;

– hujjatli axborotlarning belgilangan o‘tish muddatlarini bilishga va bajarilishini ta’minlashga;

– choparlarning ishini nazorat qilishga hamda hujjatli axborotlarning oluvchilarga va ATning tegishli JPlariga o‘z vaqtida yetkazilishini nazorat qilishga;

– o‘ta muhim hujjatli axborotlarni aloqa kanallari orqali uzatishdagi va oluvchilarga topshirishdagi barcha ushlanishlar haqida axborotlarning o‘tishi nazorati bo‘yicha navbatchiga, ATBNga va JP NHR boshlig‘iga bildiruv berishga.

Telegraf markazi (stansiyasi), qabul qilish radiomarkazi, jangovar boshqaruv signallarini qabul qilish (uzatish) jangovar posti NHR quyidagilarga majbur:

a) jangovar boshqaruv signallarini uzatishda:

– komanda (buyruq) olgandan so‘ng aloqa vositalarini yoqishga va ularning shayligini nazorat qilishga;

- signalning blankini olishga, to‘g‘ri rasmiylashtirilganligini tekshirishga, belgilangan qoidalar bo‘yicha uzatishga kirishishga;
- uzatish tugagach navbatchi hisob boshlig‘iga bildiruv berishga;
- uzatilgan signal qabul qilinganligi haqida tasdiq olishga (agrda bu ko‘zda tutilgan bo‘lsa);
- signalning blankiga tegishli belgilarni qo‘yishga va uni navbatchi hisob boshlig‘iga berishga;
- uzatilgan signalning vaqtini va matnini navbatchilikni olib borish jurnaliga (apparat jurnaliga yoki texnik jurnalga) yozib qo‘yishga.

b) jangovar boshqaruv signalini qabul qilishda:

- signalni to‘g‘ri qabul qilishga va uni blankka aniq qilib yozishga;
- signalni olganligiga tasdiq berishga (agar ko‘zda tutilgan bo‘lsa);zudlik bilan qabul qilingan signalning mazmunini aloqa vositalari orqali boshqaruv punkti tezkor navbatchisiga (keyinchalik signal matnini imzo ostida topshirib) yetkazishga, ATBNga va JP NHR boshlig‘iga bildiruv berishga;
- navbatchilikni olib borish jurnaliga (apparat jurnaliga yoki texnik jurnalga) qabul qilingan signalning vaqtini va matnini yozib qo‘yishga (jangovar boshqaruv signali qabul qilingan (uzatilgan) va topshirilgan vaqtlari soat, daqiqa va soniyalarda qayd etiladi).

Jangovar boshqaruv signallari hych qanday navbatsiz, boshqa har qanday axborotlarni uzatishni (qabul qilishni) to‘xtatib qo‘yib qabul qilinadi.

a) o‘ta muhim axborotni uzatish(qabul qilish)da:

- hujjatli axborotni belgilangan tezlikda va to‘g‘ri uzatish (qabul qilish) lozim;
- uzatilgan hujjatli axborotni muxbirlar qabul qilganligi haqida tasdiq olinadi (qabul qilingan hujjatli axborotga tasdiq beriladi);
- uzatilgan (qabul qilingan) hujjatli axborot rasmiylashtiriladi;
- zudlik bilan smena (navbatchi hisob) boshlig‘iga hujjatli axborot olinganligi haqida bildiruv beriladi;
- hujjatli axborotni uzatishdagi (qabul qilishdagi) ushlanishlar haqida JP NH Boshlig‘iga va axborotlarning o‘tishi nazorati bo‘yicha navbatchiga bildiruv beriladi.

Jangovar boshqaruv signali qabul qilingan (uzatilgan) va bildiruv berilgan (topshirilgan) vaqtlari soat, daqiqa va soniyalarda qayd etiladi.

Telefon markazi (stansiyasi) JP NHR quyidagilarga majbur:

- muxbir(abonent)larning chaqiruv signallariga zudlik bilan javob berishga;
- abonentlarni belgilangan me‘yoriy vaqtlarda ulashga;
- abonentlarga telefon so‘zlashuvlarini taqdim etishni belgilangan navbat bilan ta‘minlashga;
- o‘ta muhim telefon so‘zlashuvlarini olib borish huquqidan foydalanuvchi abonentlar javob bermagan taqdirda, ularning joylashgan joylarini aniqlashga va so‘zlashuvni ta‘minlashga;
- asosiy yo‘nalishlarda aloqa bo‘lmaganda so‘zlashuvlarni aloqaning aylanib o‘tuvchi yo‘nalishlari orqali ta‘minlashga;
- barcha olib borilgan o‘ta muhim so‘zlashuvlar haqida, shuningdek so‘zlashuvlarni ta‘minlashdagi ushlanishlar (yoxud ta‘minlanmaganligi) haqida JP NH boshlig‘iga (ATEBNga) bildiruv berishga.

3.2. Aloqani, QABTni va MTTni qo‘llashga doimiy shaylikda ushlab turish bo‘yicha AT navbatchi smenasi shaxslarining majburiyatlari

ATBN (ATEBN, JP NHBoshlig‘i) quyidagilarga majbur:

- amaldagi aloqaning holatini hamda QABT va MTT vositalarining ish faoliyatini doimo nazorat qilib borishga;
- zaxiradagi aloqa vositalari va kanal(liniya)larini, QABT va MTT vositalarini qo‘llashga shayligini ta‘minlashga;
- aloqaning, QABT va MTT vositalarining ish faoliyati buzilishi (sifati yomonlashishi) ehtimoliy sabablarini tezkorlik bilan aniqlashga va ularni bartaraf etish bo‘yicha choralar ko‘rishga;
- ishlab turgan va zaxiradagi aloqa, QABT va MTT vositalariga, aloqa kanal(liniya)lariga o‘z vaqtida texnik xizmat ko‘rsatilishini nazorat qilishga;
- o‘z vaqtida aloqaning holati, QABT va MTT vositalari ishlashi haqida bo‘ysunuvi bo‘yicha bildiruv berishga;
- belgilangan hujjatlarni yuritishga.

JP NHR quyidagilarga majbur:

- aloqa, QABT va MTT, signalizasiya va xizmat aloqasi vositalarining sozligini, shuningdek apparatura(vositalar)ning aniq sozlanganligini va ularda o‘rnatilgan ish rejimiga mos kelishini ta‘minlashga va belgilangan vaqtlarda bilan nazorat qilib turishga;
- aloqa, QABT va MTT vositalarining, aloqa kanal(liniya)larining holatini belgilangan vaqtlarda bilan nazorat qilib turishga;
- tasdiqlangan grafik bo‘yicha aloqa kanal(trakt, liniya)larida elektr o‘lchashlarini (xarakteristikalarini olishni) o‘tkazishga, aloqa kanal(trakt, liniya)lari kattaliklarining ko‘rsatilgan ekspluatasion me‘yorlarga mos kelmagan hollarda, ularni me‘yor ko‘rsatkichlariga keltirish bo‘yicha choralar ko‘rishga;
- zahiradagi aloqa kanal(liniya)larini va aloqa, QABT va MTT vositalarini ishlatish uchun doimiy shay holatda ushlab turishga;
- aloqaning, QABT va MTT ishining buzilishiga (sifati yomonlashuviga), olib kelishi mumkin bo‘lgan aloqa vositalaridagi nosozliklarni aniqlashga, ularni bartaraf etishga hamda bu haqda NH boshlig‘i (ATEBN)ga bildiruv berishga;
- birlashtirilgan aloqa, QABT va MTT vosita(apparatura)lariga o‘z vaqtida va yuqori sifatda texnik xizmat ko‘rsatishga;
- xavfsizlik texnikasi va yong‘in xavfsizligi qoidalariga qat‘iy rioya qilishga va bajarishga;
- o‘tkazilgan aloqa sifatini, aloqa, QABT va MTT vositalari ishini tekshirishlari natijalari haqidagi yozuvlarni navbatchilikni olib borish (apparat yoki texnik) jurnaliga aniq yozib borishga.

Aloqa kanalida (qabul qilish apparatida) buzilishlar yoki aloqa uzilishi paydo bo‘lganda, navbatchi telefonist (telegrafist), aloqani (kanalni) maxsus apparatxona mexanigiga tekshirish uchun topshirishga majbur.

Bunda maxsus apparatxona mexanigi quyidagilarga majbur:

- apparaturaning ish qobiliyatini tekshirishga, agarda buzilish yoki aloqa uzilishi apparaturaning nosozligi tufayli kelib chiqqan bo‘lsa, aloqani zaxiradagi komplektga o‘tkazishga;

- muxbir AT maxsus apparatxonasi mexanigidan o‘z apparaturasining ish qobiliyatini tekshirishni hamda apparaturasi nosoz bo‘lsa uni almashtirishni talab qilishga;
- aloqa kanalining asosiy ko‘rsatkichlarini o‘lchab ko‘rishga va agar uning sifati qoniqarsiz bo‘lsa kanalni hosil qilish markazi (stansiyasi) mexanigiga (AT, ATE kanallar krossi mexanigiga) topshirishga;
- tegishli ATE oxirgi uskunalari apparatxonasi mexanigidan oxirgi apparaturani almashtirishni talab qilishga (agarda buzilishlar uning nosozligi tufayli bo‘lsa);
- o‘z harakatlari natijalari haqida navbatchilikni olib borish (apparat yoki texnik) jurnaliga yozib qo‘yishga.

Amaldagi va zahiradagi aloqa kanallari holatini ularni oxirgi uskunalaridan uzib qo‘yib tekshirish uchun JP NHR quyidagilarga majbur:

- amaldagi va zahiradagi aloqa kanallari ish qobiliyatini tekshirish uchun ATEBNDan (JP NHBoshlig‘idan) ruxsat olishga;
- tekshirishni o‘tkazish davrida amaldagi aloqani zaxiralashni belgilangan tartibda ta‘minlashga;
- belgilangan uslubiyat (metodika) bo‘yicha aloqa kanallarining texnik holatini tekshirishga (kerakli o‘lchashlarni o‘tkazishga);
- aloqa kanallaridagi aniqlangan nosozliklarni bartaraf qilishga va ularni sozlashga;
- aloqa kanallarini tekshirishda aniqlangan barcha kamchiliklar haqida, hamda ularning sozlanishiga va to‘g‘rilanishiga kiritilgan o‘zgarishlar haqida ATEBNGa (JP NHBoshlig‘iga) bildiruv berishga;
- kanallarning kommutatsiyasini amaldagi chizmaga mos holda tiklashga;
- aloqa kanallarini tekshirish va o‘lchashlar natijalarini navbatchilikni olib borish (apparat yoki texnik) jurnaliga yozib qo‘yishga.

Aloqani, QABT va MTT vositalarini qo‘llashga doimiy shay holatda ushlab turish maqsadida navbatchi smena shaxsiy tarkibi ularga o‘z vaqtida va yuqori sifatli texnik xizmat ko‘rsatishni o‘tkazishga majburdirlar.

Har qaysi apparaturaga, aloqa liniyasiga, QABT va MTT vositalariga texnik xizmat ko‘rsatishda bajariladigan ishlarning mazmuni va ketma-ketligi ularning ekspluatasion hujjatlari bilan aniqlanadi.

Aloqa, QABT va MTT vositalarini ularga texnik xizmat ko‘rsatish vaqtida o‘chirib qo‘yish zarur bo‘lgan hollarda JP NHR quyidagilarga majbur:

- zahiradagi aloqa, QABT va MTT vositalarini tekshirishga va ishga tayyorlashga;
- texnik xizmat ko‘rsatishga tayyorligi haqida ATEBNGa (JP NHBoshlig‘iga) bildiruv berishga va uning ruxsati bilan aloqani zaxiradagi apparatura(kanal)ga o‘tkazishga;
- texnik xizmat ko‘rsatish yakunlangandan so‘ng aloqa apparaturasi (kanali) ish qobiliyatini tekshirib ko‘rishga;
- ATEBNGa (JP NHBoshlig‘iga) bildiruv berishga va uning ruxsati bilan aloqani asosiy apparatura(kanal)ga o‘tkazishga;
- o‘tkazilgan texnik xizmat ko‘rsatishlar haqida navbatchilikni olib borish (apparat yoki texnik) jurnaliga yozib qo‘yishga.

Texnik xizmat ko‘rsatish o‘tkazilayotganda ATEBN quyidagilarga majbur:

- texnik xizmat ko‘rsatishga tayyorligi haqida ATEBNGa bildiruv berishga va uning ruxsati bilan aloqani zaxiradagi apparatura(kanal)ga o‘tkazishga yoki aloqa chizmasiga,

QABT va MTT ishlashi chizmasiga o'zgartirish kiritishga hamda apparatura(vosita)ni uzish(o'chirish)ga komanda berishga;

– texnik xizmat ko'rsatish yakunlangandan so'ng aloqa apparaturasi (kanali), QABT va MTT vositalari ish qobiliyatini tekshirib ko'rishga, ATBNga bildiruv berishga va uning ruxsati bilan aloqani asosiy apparatura(kanal)ga o'tkazishga, QABT va MTT ishlashi chizmasini tiklashga;

– o'tkazilgan texnik xizmat ko'rsatishlar haqida navbatchilikni olib borish jurnaliga yozib qo'yishga.

3.3. AT navbatchi smenalari shaxslarining aloqani o'z vaqtida o'rnatish bo'yicha majburiyatlari

AT vositalari orqali hosil qilingan va KAT(kanallarni tarqatish punktlari)dan qabul qilinadigan **aloqa kanallarining sifati uchun**, shuningdek ularning ko'rsatkichlarining ekspluatasion me'yorlarga mos kelishi uchun **AT kanal hosil qilish elementlari** (apparatxonalari, stansiyalari) **navbatchi hisoblari javobgardir.**

Ixtiyoriy kanal bo'yicha oxirgi apparatxonadan (oxirgi apparatdan) talab qilingan sifatdagi aloqa almashinuvi amalga oshirilsagina **ushbu kanal orqali aloqa o'rnatilgan hisoblanadi.**

Oxirgi apparatxona (stansiya) JP NHR tomonidan tekshirilgan va qabul qilib olingan aloqa kanali ushbu **JPniki deb hisoblanadi.** Agarda tekshiruv natijasida kanalning elektr ko'rsatkichlari belgilangan me'yorlarga to'g'ri kelmasligi aniqlansa, ushbu kanal kanal hosil qilish markaziga (stansiyasiga) **qaytarib topshiriladi.**

Past sifatli kanal kanal hosil qilish markazi (stansiyasi) hisobida turadi va ekspluatasiyaga **topshirilmagan deb hisoblanadi.**

Oxirgi apparatxona (stansiya) JP NHR tomonidan tekshirilgan va ishlatishga qabul qilib olingan aloqa kanalining elektr ko'rsatkichlari belgilangan me'yorlar chegarasida bo'lsa, uni kanal hosil qilish elementiga (stansiyasiga) **qaytarish ta'qiqlanadi.**

Har bir ATda har bir JP NHRning aloqani o'rnatishdagi **harakatlari tartibi va ketma-ketligi** AT boshlig'i tomonidan, "Qoidalar" talablariga mos holda **belgilab beriladi** va navbatchi smena shaxslar Yo'riqnomalarida aks ettiriladi.

3.4. AT navbatchi smenalari shaxslarining buzilgan aloqani, QABT va MTT vositalari ishini tiklash bo'yicha majburiyatlari

Jangovar post, avariya-tiklash komandalari, ATni va uning elementlarini boshqaruv punktlari navbatchi hisoblarining buzilgan aloqani tiklash bo'yicha harakatlari, odatda, ATda oldindan ishlab chiqilgan aloqa apparaturalarini, kanal (liniya) larini, QABT va MTT vositalarini zaxiralash variantlari bilan aniqlanadi.

Aloqaning, QABT va MTT ishlashining **har qaysi buzilishi holatlarida** AT navbatchi shaxslari **birinchi navbatda:**

– axborotni aloqaning aylanib o'tuvchi kanallari orqali uzatish (qabul qilish) bo'yicha;

– ko'zda tutilgan zaxiralash varianti bo'yicha aloqaning, QABT va MTT ishlashini zudlik bilan tiklash bo'yicha;

– buzilgan aloqa qurilmasi(vositasi)ni, kanal(liniya)sini, QABT va MTT vositasini tiklash bo'yicha zarur choralarni ko'rishlari lozim.

Aloqa, QABT va MTT **ishlashi buzilganda** JP NHR quyidagilarga majbur:

– buzilish haqida JP NHBoshlig‘iga (ATEBNga) bildiruv berishga;

– ko‘zda tutilgan zaxiralash varianti bo‘yicha yoki ATEBN (JP NHBoshlig‘i) ko‘rsatmalariga ko‘ra aloqani ta‘minlashga, QABT va MTT vositalarini o‘zgartirishga;

– buzilish sababini aniqlashga, bu haqda JP NHBoshlig‘iga (ATEBNga) bildiruv berishga;

– apparaturadagi nosozlikni bartaraf etishga yoki aloqa kanalini (liniyasini) aloqa buzilishi sababini bartaraf qilish uchun aloqa kanali (liniyasi) holati uchun javobgar bo‘lgan JP NHRga topshirishga;

– aloqa buzilishi sababi bartaraf qilingandan so‘ng hamda aloqa apparaturasi, kanali (liniyasi), QABT va MTT vositalari ish qobiliyatini tekshirgandan so‘ng JP NHBoshlig‘iga (ATEBNga) bildiruv berishga va uning ruxsati bilan aloqani tiklangan aloqa kanali(liniyasi)ga o‘tkazishga;

– buzilish sababini hamda aloqa, QABT va MTT ishlashi tiklangan vaqtni navbatchilikni olib borish (apparat yoki texnik) jurnaliga yozib qo‘yishga.

Davlat aloqa tarmog‘i kanali orqali aloqa buzilganda JP NHR quyidagilarga majbur:

– buzilgan aloqa kanalini belgilangan tartibda kanallarni ajratish punktiga (bog‘lanish punktiga) topshirishga, topshirgan vaqtini va davlat aloqa tarmog‘i korxonasi navbatchi operatori familiyasini navbatchilikni olib borish (apparat yoki texnik) jurnaliga yozib qo‘yishga, va operatordan uni almashtirishni talab qilishga (agar ko‘zda tutilgan bo‘lsa);

– aloqa kanali buzilishi bartaraf qilingach, uning elektr ko‘rsatkichlarining belgilangan ekspluatsion me‘yorlarga mosligini tekshirib ko‘rishga, hamda bog‘lanish punkti bilan kelishilgan holda va JP NHBoshlig‘i (ATEBN) ruxsati bilan aloqani asosiy kanalga o‘tkazishga (agar almashtirish amalga oshirilgan bo‘lsa);

– aloqa kanali ishidagi tanaffusning vaqtini va sababini kanallarni ajratish punkti (bog‘lanish punkti) navbatchi xizmatlari bilan kelishilgan holda navbatchilikni olib borish (apparat yoki texnik) jurnaliga yozib qo‘yishga.

Buzilgan aloqalarni tiklash bo‘yicha aniq majburiyatlar va javobgarlik hududlari (chegaralari) AT navbatchi smenasi shaxslariga Yo‘riqnomalarda ko‘rsatiladi.

AT xizmat ko‘rsatishida bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga tegishli kabel va doimiy havo liniyalari buzilganda, ATBN bu haqda AT boshlig‘iga bildiruv berishga va uning ruxsati bilan buzilish joyiga avariya-tiklash komandasini jo‘natishga hamda tiklash ishlari borishini nazorat qilishga majburdir.

3.5. ATni jangovar shaylikning belgilangan darajalariga keltirishda AT navbatchi smenalari shaxslarining majburiyatlari

AT jangovar shaylikning belgilangan darajalariga keltirilishi paytida navbatchi smena shaxslarining harakatlariga bevosita rahbarlikni **AT boshlig‘i yetib kelguniga qadar ATBN, keyin esa shaxsan AT boshlig‘i** amalga oshiradi.

ATni jangovar shaylikning belgilangan darajasiga keltirilishi haqidagi signal(komanda)ni olishi bilan, **ATBN** quyidagilarga majbur:

– ATni jangovar shaylikning belgilangan darajasiga keltirilishi haqida AT boshlig‘ini ogohlashga, ATEBNlarga ATni jangovar shaylikning belgilangan darajasiga keltirilishi haqida komanda berishga, ATni jangovar shaylikning belgilangan darajasiga keltirilishi haqida aloqani boshqaruv punkti navbatchi ofiseriga bildiruv berishga;

– ATning tegishli jangovar shaylik darajasi uchun chizma-buyruqda koʻzda tutilgan qoʻshimcha aloqalarni oʻrnatish (ochish), kanallarni qabul qilish boʻyicha ATEBNlarga vazifalarni aniqlashtirishga;

– jangovar boshqaruv signallari oʻtishi ustidan va navbatchi smena shaxsiy tarkibining jangovar navbatchilikni olib borishi ustidan nazoratni kuchaytirishga;

– rejaga koʻra navbatchi smena tarkibini kuchaytirish va ATni qoʻriqlashni tashkillashtirish haqida farmoyish berishga;

– aloqa, QABT va MTT vositalariga texnik xizmat koʻrsatishni toʻxtatish, apparaturalarni dastlabki holatga keltirish haqida komanda berishga;

– MTT, avariya-tiklash komandasi, tibbiyot punkti va taʼminot punkti holatini va shayligini aniqlashga;

– ATni jangovar shaylikka keltirish boʻyicha qabul qilingan va berilgan barcha farmoyishlar haqida navbatchilikni olib borish jurnaliga yozib borishga.

ATEni jangovar shaylikning belgilangan darajasiga keltirilishi haqidagi signal(komanda)ni olishi bilan, **ATEBN** quyidagilarga majbur:

– ATEni jangovar shaylikning belgilangan darajasiga keltirilishi haqida JPlarni ogohlashga;

– aloqa (kanallar) holati, QABT va MTT vositalari holati ustidan, jangovar boshqaruv signallari, oʻta muhim hujjatli axborotlar va soʻzlashuvlar oʻtishi ustidan nazoratni kuchaytirishga;

– aloqa apparaturasi(vositalari)da va kanal(liniya)larida, QABT va MTT vositalarida profilaktika va texnik xizmat koʻrsatish ishlarini toʻxtatish hamda ularni jangovar shay holatga keltirish haqida, shuningdek zaxiradagi apparatura (kanal), aloqa bogʻlanish liniyalari, QABT va MTT vositalari tekshirilishi va qoʻllashga tayyorlanishi haqida komandalarni berishga;

– shaxsiy tarkib(harbiy xizmatchilar, MV ishchi va xizmatchilari)ning navbatchi smenalarni kuchaytirish uchun (tasdiqlangan jangovar navbatchilikni tashkil qilish chizmasiga asosan) oʻz vaqtida yetib kelishini nazorat qilishga;

– chizma-buyruqqa va ATBN koʻrsatmalariga asosan qoʻshimcha aloqalar oʻrnatilishi(ochilishi)ni va kanallar qabul qilinishini shaxsan boshqarishga;

– ATening yashovchanligi uchun kurashish boʻyicha tadbirlarni tashkil qilishga tayyor turishga;

– ATEni qoʻriqlash va mudofaa qilishni tashkillashtirishga;

– ATni jangovar shaylikning belgilangan darajasiga keltirish Rejasida koʻzda tutilgan tadbirlarning ATEda bajarilishi haqida ATBNga bildiruv berishga;

– ATEni jangovar shaylikning belgilangan darajasiga keltirish boʻyicha olingan va berilgan farmoyishlar haqida navbatchilikni olib borish jurnaliga yozib borishga.

AT jangovar shaylikning belgilangan darajasiga keltirilganda **JP NHR** quyidagilarga majbur:

– zahirada va texnik xizmat koʻrsatishda boʻlgan aloqa apparatura(vosita)larini va aloqa kanal(liniya)larini ishlatishga tayyorlashga;

– ular orqali qoʻshimcha aloqalar (kanallar) qabul qilinishi koʻzda tutilayotgan bogʻlovchi liniyalar shayligini va sifatini tekshirishga;

– signal(komanda)larni qabul qilishga doimiy tayyor turishi lozimligi haqida muxbirlarni ogohlantirishga;

- qo‘shimcha aloqalarni o‘rnatish (ochish) va aloqa kanallarini qabul qilish bo‘yicha komandalarni aniq va tez bajarishga;
- shaxsiy himoya vositalarini qo‘llashga shay holatga keltirishga;
- olingan farmoyishlar va ularni bajarish bo‘yicha harakatlari haqida navbatchilikni olib borish (apparat yoki texnik) jurnaliga yozib borishga.

Har bir JP NHRning ATni jangovar shaylikning belgilangan darajasiga keltirishdagi aniq majburiyatlari Yo‘riqnomalar bilan, harakatlari ketma-ketligi va ko‘zda tutilgan tadbirlarni bajarish muddatlari esa – har bir JP NHR uchun (navbatchilikni olib borayotgani uchun ham, “Navbatchi smena kuchaytirilgan holda navbatchilikni tashkil qilish chizmasi” bo‘yicha keladiganlari uchun ham) rasmiylashtirilib beriladigan **vaqt grafiklari** bilan belgilanadi.

3.6. Tezkor-texnik xizmat bo‘yicha hujjatlar

ATlarda, ATElarda va JPlarda tezkor-texnik xizmat bo‘yicha hujjatlar ishlab chiqiladi va yuritiladi.

AT boshlig‘ining qaroriga ko‘ra, texnik imkoniyatlar mavjud bo‘lsa, hujjatlarning ma‘lum bir qismi (Yo‘riqnomalar, ma‘lumot beruvchi materiallar va b.) ShEHMda elektron shaklda yuritilishi mumkin.

AT navbatchi smenasi shaxslari uchun tezkor-texnik xizmat bo‘yicha yuritiladigan hujjatlarning taxminiy ro‘yxati ilovada keltirilgan.

Bulardan tashqari, ATElarida va JPlarida **qo‘shimcha ravishda** quyidagi hujjatlar ishlab chiqiladi va yuritiladi.

Kanal hosil qilish markazi bo‘yicha navbatchida:

– yuqori chastotali telefonlash va tonal telegraflash tizimlari kanallarini taqsimlash jadvallari.

Kanal hosil qilish markazi JP NHRlarida:

- tonal chastota kanallari hisobi bo‘yicha ma‘lumotlar;
- har bir uzatish tizimiga va magistral kabel liniyasiga pasportlar.

Nabatchi telefonistda:

– chaqirish chizmasi;

– telefon so‘zlashuvlarini olib borish huquqiga ega bo‘lgan mansabdor shaxslar ro‘yxati;

– AT telefon stansiyasi abonentlari ro‘yxati;

– “O‘R QK ATlarida telefon so‘zlashuvlarini ta‘minlash Qoidalarini” dan ko‘chirma;

– “Shoshilinchilik toifalari va parollar haqidagi Nizom” dan ko‘chirma.

Axborot o‘tishini ta‘minlash markazi bo‘yicha navbatchida:

– hujjatli axborotlarni uzatish uchun aloqa chizmasi, aylanib o‘tuvchi yo‘nalishlar ko‘rsatilgan holda;

– boshqaruv punkti bo‘limlari joylashuvi rejasi;

– telegraf xizmatini ko‘rsatish uchun birlashtirilgan harbiy qism va muassasalar ro‘yxati kitobi.

MTT markazi bo‘yicha navbatchida:

– MTTlarning ishlash grafigi;

– MTTlarning ishlashini hisobga olish jurnali;

- shtatdan tashqari o‘t o‘chirish komandasining jangovar hisobi;
- o‘t o‘chirish qurilmalari va avariya-qutqaruv jihozlarning joylashuvi chizmasi;
- MTT markazi navbatchi smenasi shaxsiy tarkibini mashq qildirish grafigi;
- avariya-tiklash komandasining jangovar hisobi.

Elektr ta‘minoti tizimi JP NHRida:

- elektr qurilmalarida ish bajarish uchun naryad-ruxsatnomalar blanklari;
- xavfsizlik texnikasi qoidalariga asosan elektr qurilmalarida ish bajarishni tashkil qilish bo‘yicha hujjatlar;
- akkumulyator batareyalari jurnali;
- dizelning mashina jurnali.

Jangovar boshqaruvning maxsus aloqa posti NHBoshlig‘ida:

ATda jangovar boshqaruv signallari o‘tishini hisobga olish jurnali.

Navbatchi smena shaxslari uchun tezkor-texnik xizmat bo‘yicha hujjatlarning aniq ro‘yxati AT boshlig‘i tomonida belgilanadi.

AT uchun chizma-buyruq aloqa boshqarmasi (bo‘limi, bo‘linmasi) tomonidan **ishlab chiqiladi** va aloqa boshlig‘i tomonidan **imzolanadi**. Unda quyidagilar ko‘rsatiladi:

- o‘z birlashma(qo‘shilma)sining hamda yuqori turuvchi, bo‘ysunuvchi va hamkorlikdagi birlashma(qo‘shilma)larning boshqaruv punktlari ATlari;
- aloqa liniyalari, tizimlari va kanallarining shartli raqamlari, aloqa bilan ta‘minlash uchun qo‘llaniladigan aloqa va QABT apparatura(vosita)lari turlari hamda maxfiylashtirilgan aloqalar uchun kalit hujjatlari raqamlari ko‘rsatilgan holda aloqa yo‘nalishlari;

- har bir aloqani o‘rnatish navbati va muddatlari.

Chizma-buyruq **jadval shaklida** ham tayyorlanishi mumkin. Bu holda unda quyidagilar ko‘rsatiladi:

- gorizontal bo‘yicha – markazlar (guruhlar) bo‘yicha AT apparatxonalarining to‘liq tarkibi, har bir radiostansiya (apparatxona) tarkibiga kiruvchi apparaturalar ko‘rsatilgan holda;
- vertikal bo‘yicha – aloqa yo‘nalishlari; radiotarmoq, radioyo‘nalish va aloqa kanallarining shartli raqamlari; maxfiylashtirilgan aloqalar uchun kalit hujjatlari raqamlari; diapazonlari ko‘rsatilgan holda ishchi chastotalar (to‘lqinlar) nominallari; muxbirlar azimutlari; radiopozivnoylar va aloqalarni o‘rnatish muddatlari.

Jadvalda har bir radiotarmoqqa, aloqa yo‘nalishiga (liniyasiga) aloqa apparaturasi biriktirib qo‘yiladi (kanal hosil qiluvchi apparatxona tarkibidan ham, AT oxirgi apparatxonalarini tarkibidan ham). Tanlangan apparatura «X» belgisi bilan belgilab qo‘yiladi; kanalning kanal hosil qiluvchi apparatxonadan oxirgi apparatxonalarga ulanishi, kabel juftliklari raqamlari va aloqaning shartli belgisi ko‘rsatilgan holda, uzluksiz chiziq bilan ko‘rsatiladi. Agar kanal kommutatorga berilsa, kommutator uyasining raqami ko‘rsatiladi.

ATga chizma-buyruq ATBNda turadi.

ATEga chizma-buyruq ATga chizma-buyruq asosida ishlab chiqiladi va AT boshlig‘i tomonidan imzolanadi. Chizmada aloqa bilan ta‘minlovchi JPlarning raqamlari ko‘rsatiladi.

ATEga chizma-buyruq ATEBNda turadi.

ATEga chizma-buyruq asosida ATE boshlig'i ATening har bir JPi va har bir JP NHR uchun chizma-buyruq ishlab chiqadi va imzolaydi.

Chizmalarda ushbu JP ta'minlaydigan aloqa turlari va yo'nalishlarning shartli raqamlari, aloqa bilan ta'minlash uchun qo'llaniladigan aloqa va QABT apparatura(vosita)larining turlari va tezkor raqamlari, o'zaro hamkorlikdagi JPlar bilan ulanish liniyalari raqamlari, har bir aloqani o'rnatish navbati va muddatlari ko'rsatiladi.

JPga chizma-buyruq asosida ushbu JP NHRlari uchun alohida chizma-buyruqlar ishlab chiqiladi.

JPga chizma-buyruqda aloqa va QABT vositalarini, aloqa kanal va liniyalarini zaxiralash tartibi bo'yicha ko'rsatmalar mavjud bo'lsa, ushbu JP uchun alohida zaxiralash chizmasi ishlab chiqilmaydi.

ATga, ATElarga, JPlarga (JP NHRlariga) chizma-buyruqlariga aloqani ta'minlash bo'yicha vazifalar o'zgarganda, aloqa va QABT apparaturalari, vositalari soni ko'payganda yoki qisqarganda, shuningdek ATning shtati va unga tabeli o'zgarganda katta boshliqning ko'rsatmalari bo'yicha o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

AT(ATE)larida AT(ATE)ga chizma-buyruqqa asosan **amaldagi aloqa chizmasi** ishlab chiqilishi mumkin.

ATning kanal hosil qilish chizmasi aloqa boshqarmasi (bo'limi, bo'linmasi) tomonidan, yuqori turuvchi shtabning farmoyish va ko'rsatmalariga asosan ishlab chiqiladi hamda tegishli aloqa boshlig'i tomonidan imzolanadi.

Chizmada quyidagilar ko'rsatiladi:

– ular bilan to'g'ridan-to'g'ri va tranzit uzatish tizimlariga ega bo'lgan ATlar, radiouzatish markazlari, radio qabul qilish markazlari, signallarni kommutatsiyalash stansiyalari va xizmat ko'rsatiluvchi kuchaytirish punktlarining shartli raqamlari;

– ularning kabel liniyalari yo'nalishlari, turlari va uzunliklari;

– tarmoqlovchi xizmat ko'rsatilmaydigan kuchaytirish punktlari va ularning raqamlari;

– qo'llaniladigan aloqa apparatura(vosita)lari turlari va ular yordamida hosil qilingan uzatish tizimlarining shartli raqamlari.

“AT(ATE, JP) jangovar shaylikning belgilangan darajalariga keltirilganda bajariladigan tadbirlarning vaqt grafigi” yuqori turuvchi shtab tomonidan tasdiqlangan “ATni jangovar shaylikka keltirish rejasi”ga asosan ishlab chiqiladi va AT (ATE) boshlig'i tomonidan imzolanadi.

Vaqt grafigida quyidagilar aks ettiriladi:

– “ATni jangovar shaylikka keltirish rejasi”da ko'zda tutilgan aniq tadbirlarning bajarilish ketma-ketligi va muddatlari, shu jumladan shaxsiy tarkibni ogohlash va yig'ish;

– JPlar navbatchi hisoblari tarkibini kuchaytirilishi;

– amaldagi aloqa apparatura(vosita)sini, kanal(liniya)sini, QABT va MTT vositalarini tekshirilishi va zaxiradagilarini qo'llashga shay holatga keltirilishi;

– yuqori turuvchi, bo'ysunuvchi va o'zaro hamkorlikdagi ATlar bilan aloqa o'rnatilishi bo'yicha tadbirlar;

– davlat aloqa tarmog'idan kanallarni (birinchi va ikkinchi navbatdagi) qabul qilinishi bo'yicha tadbirlar;

– avariya-tiklash komandalarini shaylikka keltirilishi va boshqa tadbirlar.

Vaqt grafiklari “ATning tadbirlarning bajarilish grafigi”ga asosan ishlab chiqiladi va qo‘shimcha ravishda faqatgina ushbu ATEda va JPlarda bajariladigan tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

“AT(ATE, JP)da aloqa apparatura (vosita) larini, kanal (liniya) larini va QABT vositalarini zaxiralash chizmasi” AT(ATE, JP) da ishlab chiqiladi hamda ishdan chiqqan aloqa apparatura (vosita) larini, kanal (liniya) larini, QABT vositalarini, antenna-fider qurilmalarini, elektr ta‘minoti manbaalarini zaxiradagi ishlaydiganlariga almashtirilishi mumkin bo‘lgan variantlarini, shuningdek zaxiralash uchun radioreley va troposfera vositalari qo‘llanilishini ko‘zda tutadi.

Zaxiralash chizmasining detallashtirilish darajasi shunday bo‘lishi lozimki, AT navbatchi smenasi mansabdor shaxslari va JP NHRlari avariya holatlarida bajariladigan tadbirlarni o‘zlari, boshqa mansabdor shaxslarga va hujjatlarga murojaat qilmasdan bajara olishlari kerak.

Zaxiralash chizmasi ATBN(ATEBN, JP)da turadi va unga zarurat tug‘ilganda, lekin yiliga kamida bir marotaba aniqlik kiritiladi.

“AT(ATE, JP)da navbatchilikni olib borish jurnali”da quyidagilar aks ettiriladi:

– navbatchi smena mansabdor shaxslarining, yuqori turuvchi ATlarning va boshliqlarning AT(ATE, JP)da aloqani va QABni, axborot o‘tishini va navbatchilikni olib borishni tashkil qilish va ta‘minlash masalalari bo‘yicha, bajarilish muddati bir sutkadan kam bo‘lgan buyruqnomalari, farmoyishlari;

– ATBN(ATEBN, JP NHBoshliqlari)ga navbatchilikni olib borish vaqtida berilgan komandalar, farmoyishlar;

– buyruqnoma(farmoyish)larni bajarish bo‘yicha harakatlar haqida, aloqaning holati va aloqadagi tanaffuslar haqida, axborotlarning o‘tishidagi ushlanishlar haqida, qo‘shinlarni pinhona boshqarish qoidalari, aloqa intizomi, aloqa va axborot xavfsizligi, maxfiylik rejimi buzilishlari haqidagi kelib tushgan va berilgan bildiruvlar;

– aloqa bo‘yicha va AT yashovchanligini uchun kurash bo‘yicha mashqlar reja-grafigi bajarilishi natijalari va ularning sifati;

– AT (ATE) va yuqori turuvchi shtab mansabdor shaxslari tomonidan navbatchi smena shaxsiy tarkibi tomonidan navbatchilikni tashkil qilish va olib borilishini nazorat qilish natijalari;

– navbatchilik olib borilishi mobaynida hal qilinadigan boshqa savollar.

Jurnalga barcha yozuvlar, buyruqnoma (farmoyish) bergan (berilgan) shaxsning mansabini va vaqtini, hamda uning bajarilishi ko‘rsatilgan holda, aniq va tushunarli qilib yoziladi.

Smena yakunida AT (ATE, JP NHBoshlig‘i) bo‘yicha navbatchi AT (ATE) boshlig‘i nomiga smena davomida navbatchilikni olib borish natijalari haqida **bildiruv** yozadilar. Bildiruvda quyidagilar aks ettiriladi:

AT(ATE, JP)da axborotlarning o‘tishi ko‘rsatkichlarining son va sifat ko‘rsatkichlari, alohida-alohida: jangovar boshqaruv signallari bo‘yicha, hujjatli axborotlar bo‘yicha, telegraf va telefon so‘zlashuvlarini ta‘minlanishi bo‘yicha;

aloqani ta‘minlash sifati hamda aloqa apparaturasi, QABT va MTT vositalari ishining ishonchliligi;

aloqa va axborot xavfsizligining, maxfiylik rejimining va navbatchilik intizomining holati;

AT (ATE, JP NH) navbatchi smenasi shaxsiy tarkibining navbatchilikni olib borganligiga baho.

Bildiruvning oxiriga topshirayotgan va tushayotgan AT (ATE, JP NH) boshlig'i bo'yicha navbatchilar navbatchilikni topshirganligi (qabul qilganligi) haqida imzo qo'yadilar.

Aloqa boshlig'ining qarori bilan, AT (ATE) bo'yicha navbatchining navbatchilikni olib borish yakunlari bo'yicha bildiruvi alohida **bildiruvlar jurnalida** yozilishi mumkin, uning shakli va mazmuni AT (ATE) tomonidan hal qilinadigan vazifalarning hajmidan kelib chiqib belgilanadi.

Rahbariy hujjatlar (qo'llanma, nizom) bilan apparat (texnik, eksploatasion, ekspeditorlik va boshqa) jurnali yuritilishi belgilab qo'yilgan JPlarda navbatchilikni olib borish jurnali **yuritilmaydi**.

Ishchi xaritaga quyidagilar tushiriladi:

– aloqa ta'minlanayotgan o'z birlashmasi (qo'shilmasi), yuqori shtab, bo'ysunuvchi va o'zaro hamkorlik qiluvchi qo'shinlar boshqaruv punktlarining ATlari;

– tayanch ATlari (davlat aloqa tarmog'i kanallarini ajratish punktlari), ularga bog'lanish liniyalari;

– simli, radioreley, troposfera aloqa liniyalarining trassalari, ularning kimga taalluqliligi, turlari va shartli raqamlari, xizmat ko'rsatiluvchi va xizmat ko'rsatilmaydigan kuchaytirish punktlari, eksploatasion qo'riqlash uchastkalari;

– qo'llanilayotgan kanal hosil qilish apparaturalarining turlari va tezkor raqamlari;

– alohida joylashgan ATElari va kommutatsiya punktlari joylashgan joylari; ulash liniyalari va masofadan boshqaruv liniyalari;

– boshqaruv va ogohlash signallari;

– radiasion va kimyoviy holat va boshqa zarur ma'lumotlar.

Navbatchilikni olib borish grafi navbatchi smenalar va hisoblarning familiyalari ko'rsatilgan holdagi tarkibini, ular tomonidan navbatchilikni olib borish navbatini va kalendar muddatlarini belgilaydi.

ATda navbatchilikni olib borish grafi ATBoshlig'ining tezkor-texnik xizmat bo'yicha o'rinbosari (ATni boshqarish punkti boshlig'i) tomonidan tuziladi va AT boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi. Unga ATBNlar qo'shiladi.

ATE(JP)da navbatchilikni olib borish grafi ATE (JPlar navbatchi hisoblari) navbatchi smenalari shaxsiy tarkibining barchasini o'z ichiga oladi hamda ATE(AT) boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi.

Jangovar boshqaruv signallari va barcha turdagi axborotlar o'tishining nazorat vaqtlari har qaysi ATda ishlab chiqiladi va AT bo'ysunuvchi shtab boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi.

Ushbu nazorat vaqtlari yuqori turuvchi boshliqlarning direktivali ko'rsatmalarida belgilangan muddatlardan oshmasligi lozim.

Aloqani o'rnatish (qayta tiklash) hamda aloqa va QABT vositalarida ishlash bo'yicha **me'yorlar**, shuningdek elektr ko'rsatkichlariga **eksploatasion me'yorlar** va aloqa apparaturasi (vositalari), guruhli traktlari, kanal(liniyalari) **parametrlari** (kattalıkları) O'R MV BSh tomonidan ishlab chiqiladi.

ATdagi ayrim (yangi) aloqa, QABT va MTT vositalarida ishlash uchun me'yorlar bo'lmagan taqdirda, ushbu me'yorlar ATda (ularni ishlatish tajribasidan kelib chiqib)

ishlab chiqiladi, aloqa boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi hamda u o'zida alohida operatsiyalarni va vazifalarni mazmunini, ketma-ketligini va shaxsiy tarkib tomonidan bajarilishi vaqtlarini mujassam etgan bo'lishi lozim.

JP NHRga xavfsizlik texnikasi bo'yicha yo'riqnomada navbatchilikni qabul qilishda quyidagilarni tekshirish tartibi ko'rsatilgan bo'lishi lozim:

- aloqa apparaturalarini va liniyalarini;
- QABT va MTT vositalarini;
- himoya vositalarini, ularni ishlatish xavfsizligi nuqtai nazaridan o'lchash vositalarini va asboblarni;

– navbatchi smena shaxslarining aloqa apparaturasi va liniyalarini, QABT va MTT vositalarini ishlatishda va ularga texnik xizmat ko'rsatishda xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilish bo'yicha majburiyatlari (alohida ishlarni bajarishda xavfsizlik choralari, elektr ta'minotini avariya o'chirish tartibi, ta'qiqlovchi va ko'rsatuvchi plakatlarni osib qo'yish joylari, ta'qiqlangan harakatlar ro'yxati va b.), har qaysi JPda uskunalarni joylashuvining o'ziga xosligini va navbatchilikni olib borish davomida navbatchi hisob tomonidan hal qilinadigan vazifalarni hisobga olgan holda.

JP NHRga yong'in xavfsizligi choralari bo'yicha yo'riqnomada quyidagilar aks ettirilishi lozim:

- yong'in xavfini oldini olish bo'yicha majburiyatlar;
- xonalarni tutish bo'yicha talablar;
- yonuvchi va boshqa materiallarni saqlash bo'yicha talablar;
- navbatchilikni olib borishda hal qiladigan vazifalar hisobga olingan holda yong'in sodir bo'lgandagi majburiyatlari.

Buyruqnomalar (farmoyishlar) jurnaliga bajarilish yoki amal qilish muddati bir sutkadan ko'p bo'lgan buyruqnomalar (farmoyishlar) yoziladi. Jurnal ATEBN (ATBN)da turadi va shaxsan uning o'zi tomonidan yuritiladi.

Bog'lanish va ulanish aloqa liniyalari chizmasi AT uchun va har bir ATE uchun ishlab chiqiladi. Chizmada quyidagilar ko'rsatiladi:

- turlari va shartli raqamlari ko'rsatilgan holda aloqa kabellari trassalari va yotqizilish sharoitlari;
- xizmat ko'rsatiluvchi va xizmat ko'rsatilmaydigan kuchaytirish punktlari va kommutatsiyalash punktlari;
- ekspluatatsion qo'riqlash uchastkalari;
- qo'llanilayotgan kanal hosil qiluvchi apparatura turlari va tezkor raqamlari;
- boshqa zarur ma'lumotlar.

AT (ATE, JP) elektr ta'minoti chizmasida quyidagilar ko'rsatiladi:

- davlat energiya tizimining transformator podstansiyalari, tarqatish qurilmalari va tarqaluvchi liniyalari bilan;
- davlat energiya tizimining transformator podstansiyasidan AT transformator podstansiyasigacha (asosiy tarqatuv punktigacha) ozuqa oluvchi kabel (havo) liniyalari, kabelning (simning) markasi, kesimi va uzunligi ko'rsatilgan holda;
- shinalar seksiyalari raqamlari va ulardagi kuchlanishlar; kommutatsion apparatura va uning turi; tarqaluvchi kabel liniyalari markasi, kesimi, soni va uzunligi; tok transformatorlari turi va ulardagi kuchlanish kattaligi ko'rsatilgan holda AT transformator podstansiyasining 1000 V gacha va 1000 V dan yuqori kuchlanishli tarqatuv qurilmalari;

– kuchli tok transformatorlari, ularning tartib raqami, turi, quvvati, o‘ram(obmotka)larining ulanish chizmasi;

– shinalar seksiyalari raqamlari va ulardagi kuchlanishlar, tarqatuv (kuchli tok) qalqonlariga tarqaluvchi liniyalar kommutatsiya apparatlari bilan, o‘lchov uskunalari, zaxiralash liniyalari ko‘rsatilgan holda bevosita ATda joylashgan asosiy tarqatuv qalqoni;

– turi, quvvati va kommutatsiya apparaturasi ko‘rsatilgan holda avtonom dizel-elektr stansiyasi;

– turi va quvvati ko‘rsatilgan holda kafolatlangan (uzluksiz) ta‘minot qurilmasi;

– turlari ko‘rsatilgan holda to‘g‘rilash qurilmalari;

– turlari va kuchlanishlari ko‘rsatilgan holda akkumulator batareyalari;

– tarqatish (kuchli tok) qalqonlari (kommutatsiya apparaturasi bilan), ular o‘rnatilgan joylar va elektr energiyasi iste‘molchilari.

AT elektr ta‘minoti chizmasi AT bosh (katta) muhandisi tomonidan, ATE (JP) uchun esa – ushbu MTT tarkibiga kiruvchi ATE boshlig‘i (muhandisi) tomonidan ishlab chiqiladi va imzolanadi.

AT va boshqaruv punktlari mansabdor shaxslari pozivnoylari jadvallari, telegraf va telefon so‘zlashuvlarini olib borish huquqiga ega mansabdor shaxslar ro‘yxatlari, AT telefon stansiyalari abonentlari ro‘yxatlari yuqori turuvchi shtab tomonidan ishlab chiqiladi, tasdiqlanadi va ATga jo‘natiladi. O‘zgarishlar bo‘lganda ro‘yxatlar AT boshlig‘i tomonidan aniqlashtiriladi.

Antenna qurilmalarining azimutal chizmalari ATning qabul qiluvchi va uzatuvchi radiomarkazlarida ishlab chiqiladi (faqat statsionar ATlar uchun).

Chizmaga quyidagilar tushiriladi:

– antenna qurilmalari, shu jumladan zaxiradagi tezda tiklanuvchi ham (antennalarning turi, shartli raqamlari va ishchi chastotalar diapazonlari, ularning yo‘naltirilganlik diagrammasi azimutlari ko‘rsatilgan holda);

– fider va antennalarni kommutatsiyalash qurilmalari (antenna kommutatorlari, transformatorlari va qayta ulagichlari);

– radioaloqa yo‘nalishlariga antenna-fider qurilmalarining birlashtirilishi va turli vaziyat sharoitlarida antenna qurilmalarini ishlatish mumkin bo‘lgan variantlar.

Kanallarni taqsimlash jadvallari har qaysi yuqori chastotali telefonlash va tonal telegraflash tizimi uchun AT chizma-buyrug‘iga asosan tuziladi.

Davlat aloqa tarmog‘idan ijaraga olingan tonal chastota kanallari hisobi jurnali AT kanal hosil qilish markazida yuritiladi (faqat statsionar ATlar uchun).

Har qaysi **uzatish tizimiga va magistral aloqa kabel liniyasiga pasport** (faqat statsionar ATlar uchun) ishga tushirish-sozlash ishlarini bajarish uchun javobgar bo‘lgan tashkilot vakili tomonidan, uzatish tizimini ishga tushirishda belgilangan shaklda rasmiylashtiriladi.

Keyinchalik, ATE bosh muhandisi (muhandisi) tomonidan pasportga aloqa va QABT vositalariga texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha rahbariy hujjatlar bilan belgilangan davriylikda o‘tkaziladigan uzatish tizimiga texnik xizmat ko‘rsatish davomida o‘tkazilgan o‘lchashlar natijalari kiritiladi.

Hujjatli axborotlarni uzatish uchun aloqa chizmasi AT chizma-buyrug‘iga asosan ishlab chiqiladi. Chizmada hujjatli axborotlarni uzatish uchun mo‘ljallangan aloqalar aloqaning aylanib o‘tuvchi yo‘nalishlari ko‘rsatilgan holda aks yettiriladi.

Jangovar boshqaruv signallarining o'tishi hisobi jurnali jangovar boshqaruv maxsus aloqa posti NHBoshlig'i tomonidan yuritiladi, unga ATning bevosita signallarni uzatilishini (qabul qilinishini) ta'minlovchi barcha elementlaridan bildiruvlar kelib tushadi. ATda jangovar boshqaruv maxsus aloqa posti bo'lmagan taqdirda, ushbu jurnalni yuritish AT boshlig'i tomonidan jangovar boshqaruv signallarining o'tishi nazorati uchun javobgar etib tayinlangan navbatchi smena mansabdor shaxsiga yuklatiladi.

Telegraf xizmatini ko'rsatish uchun ATga biriktirilgan harbiy qism va muassasalar kitobi telegraf stansiyasiga ega bo'lgan har bir statsionar ATda yuritiladi.

Navbatchi smenaning shtatdan tashqari o't o'chirish komandasi jangovar hisobi shtatdagi (shtatdan tashqari) yong'inga qarshi himoya va qutqaruv ishlari xizmati boshlig'i tomonidan tuziladi va AT boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi. Unda shtatdan tashqari o't o'chirish komandasining tarkibi, o'tni o'chirish bo'yicha majburiyatlari hamda o't o'chirish va shaxsiy himoya vositalari bilan qurollanishi ko'rsatib o'tiladi.

O't o'chirish qurilmalarining va avariyaqutqaruv jihozlarning joylashuvi chizmasi ATning shtatdagi (shtatdan tashqari) yong'inga qarshi himoya va qutqaruv ishlari xizmati boshlig'i tomonidan tuziladi. Unda barcha mavjud o't o'chirish, shaxsiy himoya vositalari, avariyaqutqaruv jihozlari, ularning soni va AT xonalari bo'ylab joylashuvi ko'rsatiladi.

MTT markazi shaxsiy tarkibini mashq qildirish grafigi (faqat statsionar ATlar uchun) elektr ta'minot va hayotni ta'minlash markazi (ATE) boshlig'i tomonidan tuziladi va AT bosh (katta) muhandisi tomonidan imzolandi. Unda mashqlar ro'yxati, ularni o'tkazish vaqtlari, ularni bajarish bo'yicha me'yoriy vaqtlar va o'tkazilishi uchun mas'ul shaxslar ko'rsatiladi.

Akkumulator batareyasi jurnali (faqat statsionar ATlar uchun) har bir akkumulator batareyasi uchun bo'lishi lozim. Jurnalda o'tkazilgan xizmat ko'rsatish (ko'rikdan o'tkazish) va bajarilgan ishlar hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar yoziladi.

Dizelning mashina jurnalida uning ishlagan vaqti va ishchi parametrlarini o'lchash natijalari qayd etiladi.

AT JPlari ushbu JPda vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan qo'llanmalar, nizomlar; aloqa, QABT va MTT vositalarining ekspluatasion-texnik hujjatlari; aloqa bilan ta'minlash bo'yicha buyruq va direktivalardan ko'chirmalar bilan ta'minlangan bo'lishi lozim.

Uncha ko'p bo'lmagan aloqalarni va cheklangan axborot alashinuvini ta'minlaydigan ATlarda, ushbu AT bo'ysunuvchi aloqa boshlig'ining qarori bilan, hujjatlarning ma'lum bir qismi bitta hujjatga birlashtirilishi mumkin, ushbu hujjatda birlashtirilgan hujjatlarning mazmuni aks etishi lozim.

Ushbu "Qoidalar"da keltirilgan tezkor-texnik hujjatlaridan tashqari, aloqani tashkil qilish va ta'minlash bo'yicha, ATEni, alohida apparatxonani, aloqa apparaturasi va kanal(liniya)larini, QABT va MTT vositalarini jihozlash va ishlatish bo'yicha amaldagi qo'llanma, nizom, qoida va yo'riqnomalar belgilab beriladigan boshqa hujjatlar ham yuritiladi.

Bundan tashqari, O'R QK turlari aloqa boshliqlari qarori bilan, ushbu QK turi ATda tezkor-texnik xizmatni tashkil qilishning o'ziga xosligini aks ettiruvchi qo'shimcha hujjatlar ham ishlab chiqilishi va yuritilishi mumkin.

Uchinchi bo‘lim nazorat savollari

1. ATni navbatchi smenasi shaxslarining majburiyatlari.
2. Daladagi (harakatdagi) ATBN majburiyatlari.
3. ATEBN majburiyatlari.
4. Telefon markazi (stansiyasi) JP NHR majburiyatlari.
5. JP NHR majburiyatlari.
6. ATni tezkor-texnik xizmat bo‘yicha hujjatlari.

IV. ALOQA TUGUNIDA STANSIYALARNI JOYLASHTIRISHGA QO'YILADIGAN TALABLAR

4.1. Radioelektron vosita(REV)larning elektromagnit moslashuvi (EMM) muammolari

Jangga tayyorgarlik vaqtida va jangda qo'shilma va bo'linmalarni samarali boshqaruvini ta'minlash uchun qo'mondonlik punktlari (QP) tashkil qilinadi. U asosiy boshqarish punkti (BP) hisoblanadi, chunki u yerda komandir boshchiligida boshqarish apparatining ko'p qismi, texnik vositalarning asosiy qismi joylashgan bo'lib, qo'shinlarni boshqarish bilan bog'liq muhim masalalar hal qilinadi.

QP tarkibiga quyidagilar kiradi:

- boshqaruv organlari mansabdor shaxslari;
- boshqaruvning texnik vositalari;
- aloqa bo'linmalari;
- ta'minot va xizmat ko'rsatish bo'linmalari.

QPning ajralmas qismini boshqaruvning texnik vositalari tashkil qiladi. Qo'shinlarni boshqarishning uzluksizligi, tezkorligi va QP harakatchanligi boshqaruvning texnik vositalarini soniga va imkoniyatlariga bog'liq bo'ladi.

BP aloqa tugunlari (AT) aloqa tizimining muhim elementlaridandir. Ular qo'shinlarni boshqarish maqsadida aloqa vositalaridan kompleks ravishda foydalanishni ta'minlaydi.


AT barcha aloqa vositalaridan kompleks tarzda samarali foydalanish orqali qo'shinlarni uzluksiz mukammal boshqarishni ta'minlaydi.

REVLarning ommaviy ravishda qo'llanilishi ularning EMMni ta'minlash muammolarini keltirib chiqaradi, bunga ikki taraflama halaqit sharoitlarida REVLarning normal faoliyat ko'rsatishi (ishlashi) tushuniladi.

Ikki taraflama radiohalaqitlardan himoyalash (**EMMni ta'minlash**) **shundan iboratki**, boshqa REVLarga halaqitlarni paydo qilmaslik va o'zi ular qurshovida normal ishlashini ta'minlash tushuniladi.

Radioelektron vositalarning elektromagnit moslashuvi – bu radio tizimning radioelektron va radiotexnik qurilmalardan tarqalayotgan kutilmagan radiohalaqitlar ta'siri ostida o'z funksional faoliyatini bajarishi va boshqa radiotizim ish faoliyatiga radiohalaqit tuG' dirmaslikdir.

Radioaloqani ikki taraflama halaqitlardan himoyalash, elektromagnit to'lqinlarini bir-biriga moslik talablariga rioya qilish bilan ta'minlanadi va asosan REVLarning chastotalar, vaqt bo'yicha ishlashi reglamentiga va birinchi navbatda ish joylarini to'g'ri tanlab, radiostansiyalarni joylarga belgilangan me'yorlar talablariga roiya qilgan holda o'rnatishni talab qiladi.



1- rasm. ATda aloqa vositalarini EMM bo'yicha joylashish chizmasi.

Radiostansiyalarning ta'sir masofasi asosan qo'yidagilarga bog'liq:

- uzatkichlarning quvvatiga;
- radioto'lqin tarqalish sharoitlariga;
- ishchi chastotalarga;
- antenna turiga;
- qabul punktidagi shovqin sathiga;
- qabul qilgichning sezgirligi va tanlovchanligiga;
- radiostansiyaning joylashishi o'rniga.

BP ATlarida har-bir xizmat boshliqlari, bo'linma komandirlari uchun radiostansiyalar yoyiladi va ular xizmat yuzasidan o'z ish faoliyatlarini olib borishadi.

Radiostansiyalarni BPlarida birgalikda to'g'ri joylashtirish muhim ahamiyatga egadir, chunki hatto ishchi chastotalarni to'g'ri tanlagan holda ham radiostansiyalarni bir-biriga yaqin joylashtirish shunga olib keladiki, bir radiostansiyaning uzatishga ishlashi boshqa radiostansiyalarda aloqa sifatining jiddiy yomonlashuvini keltirib chiqaradi. Radiostansiyalar oralig'idagi masofa qanchalik yaqin bo'lsa, chastotalar farqi shunchalik katta bo'lishi lozim. Hududiy farq normalari texnik hujjatlarda beriladi.

4.2. Radiohalaqitlarning asosiy turlari va ularni REV ishiga ta'siri

Radiohalaqitlar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Atmosfera halaqitlari;
2. Koinot halaqitlari;
3. Industrial halaqitlar;
4. Fluktuasion halaqitlar;
5. Tutashuv halaqitlari;
6. O'zaro halaqitlar.

Atmosfera halaqitlari – elektromagnit nurlanishga molik bo‘lib, ular chaqmoqning razryadlanishi hisobiga, shuningdek chang, suv tomchilari, qum, qor zarrachalari, kuchli shamol yoki bo‘ron ta‘sirida harakatlanib zaryadlanishi hisobiga hosil bo‘ladi va antenna ish faoliyatiga o‘z salbiy ta‘sirini ko‘rsatadi. Ular uzun va o‘rta to‘lqinlarda ancha kuchliroq, QTda kuchsizroq va UQTda juda kuchsiz bilinadi. Ularning shiddatligi hududlarning geografik sharoitiga, ob-havoga, sutka vaqtiga va yil fasliga bog‘liqdir. Chastota qancha yuqori bo‘lsa, atmosfera halaqitlari ta‘siri shuncha kamayib boradi. 30 MGs dan yuqori bo‘lgan chastota kengliklariga deyarli ta‘sir qilmaydi.

Koinot halaqitlari – Quyosh, Oy, va boshqa galaktika fazoviy jismlarining nurlanishi hisobiga yuzaga keladi. Koinot halaqitlari sun‘iy yo‘ldoshli (sputnikovyy) aloqaga juda qattiq ta‘sir ko‘rsatadi. “Magnit bo‘roni” ham koinot halaqitlari turiga kiradi va QTli radioaloqa o‘z ta‘sir kuchini ko‘rsatadi.

Industrial (sanoat) halaqitlar – sanoat, tibbiyot, ilmiy va kundalik hayotda ishlatiladigan xo‘jalik elektr uskunalarning (*har-xil stanoklar, dvigatellar, yuqori kuchlanishli elektr uzatish liniyalari, transformator stansiyalari, elektr toki bilan ishlaydigan tibbiyot uskunalari, elektr payvandlash uskunalari va h.k.*) ishlash jarayonida hosil bo‘ladi. Ushbu halaqitlar harbiy radioaloqa vositalariga juda katta ta‘sir kuchini ko‘rsatadi. Asosan avtomobillarda, zirxli texnikalarda va uchish apparatlarida o‘rnatilgan radiovositalarga ularning o‘t oldirish tizimi, xar-xil elektr qurilmalarining ish faoliyati hisobiga paydo bo‘layotgan halaqitlar ta‘sir ko‘rsatadi.

Fluktuasion halaqitlar – elektr zanjirlarida harakatlanayotgan elektronlardan ajralib chiqayotgan issiqlik hisobiga hosil bo‘ladi, ular uzatish va qabul qilish traktlari qurilmalariga katta ta‘sir ko‘rsatadi, chunki uzatgichning keng yo‘lkali halaqiti asosan fluktuasion halaqitlardan tashkil topgan. Uzatgich yaqinida joylashgan qabul qilgich qurilmalarida ishlash vaqtida bu turdagi halaqitlardan himoya qilishni hisobga olishimiz lozim. Uzatgich chiqishida radiochastotalarni filtrlash usulini qo‘llab, ushbu turdagi halaqitlar bilan kurashiladi.

Tutashuv halaqitlari – kuchli elektromagnit maydonda o‘tkazuvchi yuzalar orasida o‘zgaruvchan kontaktlar paydo bo‘lishi natijasida hosil bo‘ladi, bir harakatlanuvchi obyekt ichida bir nechasining bir vaqtda ishlashiga to‘sqinlik qiluvchi asosiy faktor hisoblanadi.

Tutashuv halaqitlarining paydo bo‘lish jarayonini quyidagicha tavsiflash mumkin:

Harakatlanuvchi obyekt (avtomobil, BTR, PJM, tank va boshqalar), elektr nuqtai nazaridan, bir-biri bilan bog‘langan juda ko‘p sonli metall elementlardan iborat. Bunday elementlarga obyekt korpusi, yurish qismi detallari, lyuklari eshiklari, apparatura bloklari, qo‘shimcha uskunalar va hokazolarni kiritish mumkin. Elektr nuqtai nazardan, bu elementlarning ayrimlari bir-biri bilan mustahkam qotirib bog‘langan, shuning uchun ular orasidagi kontaktning o‘tish qarshiligi vaqt bo‘yicha deyarli o‘zgarmaydi. Shu bilan bir qatorda, bu obyektlarda katta miqdordagi metall elementlar borki, ular harakatlanish paytida yoki obyektidagi mexanik ta‘sir natijasida bir-biriga uriladi, bir-biri bilan ishqalanadi, bir-biriga nisbatan siljiydi, buning natijasida esa ular orasida doimiy bo‘lmagan kontaktlar hosil bo‘ladi.

O‘zaro halaqitlar – bu radiovositalarning asosiy va salbiy nurlanishlaridan hosil bo‘luvchi halaqitlardir. Ko‘p sonli radioelektron vositalarning bir vaqtda ishlashi o‘zaro halaqitlar bilan kurash muammosini ilgari surdi.

Hozirda turli maqsadlarda ishlatilayotgan radioelektron vositalar sonining keskin o'sishi kuzatilmoqda (yer usti va koinot radioaloqasi, televideniye, radiolokasiya, radionavigasiya va boshqalar).

Bu holat radiochastotalarga bo'lgan talabni yanada oshishiga olib kelmoqda, lekin radioto'lqinlar diapazonining hajmi cheklangan, natijada ko'p radiotizimlar bitta chastota yo'lagida ishlashga majburdir. Ko'plab radiotizimlar tomonidan birlashtirilgan chastotalar yo'lagidan foydalanishi o'zaro halaqitlarni vujudga kelishiga sabab bo'ladi.

O'zaro halaqitlarning miqdori ko'p holatlarda to'lqinlarning tarqalish xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Turli xil diapazondagi radioto'lqinlarning tarqalish xususiyatlari bir biridan tubdan farq qiladi. Shu sababli, har bir diapazondagi o'zaro halaqitlarni miqdori va xususiyatlarini aniqlash va baholashda shu diapazonga tegishli bo'lgan maxsus usullar yordamida amalga oshiriladi.

QT diapazoni 3–30 MGs oralig'ida bo'lgan chastotalar diapazonini o'z ichiga oladi, bu chastotalar diapazonining umumiy kengligi 27 MGs ni tashkil qiladi. Odatda bitta aloqa kanalining ishlashi uchun 5 kGs kenglikdagi chastotalar diapazoni ajratiladi, natijada QT diapazonida 5400 ta aloqa kanalini joylashtirish mumkin bo'ladi.

Hozirgi kunda yer yuzining ko'plab davlatlarida yuqorida ko'rsatilgan kanallar sonidan oshiq katta miqdordagi QT diapazonida ishlovchi radiostansiya va uzatgichlar mavjud. Shuning uchun ko'p hollarda yer yuzining turli joylarida joylashgan radiostansiyalarning aksariyat qismi bitta chastotada ishlashga majburdirlar.

Natijada, QT radioliniasida to'lqinlarning uzoq masofalarga tarqalishi oqibatida, radiostansiyalarning bir biridan katta masofalarda joylashishiga qaramay, qabul nuqtalarida yuqori miqdordagi o'zaro halaqitlarni paydo bo'lishiga olib keladi.

4.3. REVlarning EMMini ta'minlash bo'yicha tadbirlar

Radioelektron vositalarning elektromagnit mosligini ta'minlashga qaratilgan tadbirlar **tashkiliy va texnik tadbirlarga** bo'linadi.

Tashkiliy tadbirlarga quyidagilar kiradi:

1. Ishchi chastotalarni to'g'ri taqsimlash va tayinlash.
2. Chastotalar farqini ta'minlash.
3. Hududiy farqni ta'minlash.
4. Vaqt bo'yicha farqni ta'minlash.
5. Kenglik bo'yicha farqni ta'minlash.

Tashkiliy tadbirlarga radiochastotalar spektrining yuklanishini nazorat qilish, ma'lum REV jamlanmasida umumiy EMMni baholash, halaqit manbalarini aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar berish bilan bog'liq bo'lgan ishlar ham kiradi. Uning bajarilishi radionazorat xizmatiga yuklangan.

Bundan tashqari, vaziyatning konkret shartlaridan kelib chiqib, halaqitlar bilan kurashning boshqa usullari ham qo'llanilishi mumkin:

- uzatkich quvvatini chegaralash;
- halaqit quvvatining spektral zichligini kamaytirish uchun maxsus signallardan foydalanish;

– halaqitlar yo‘nalishida antennalar yaqiniga maxsus ekranlarni (metall setkalarni) qurish orqali, antennalarning yo‘naltirilganlik diagrammasini halaqitlar yo‘nalishida “o‘pirish” bilan sintezlash.

Texnik tadbirlarga quyidagilar kiradi:

– yangi ishlab chiqarilayotgan, sotib olinayotgan REVning chastotalar diapazonini to‘g‘ri tanlash;

– yangi ishlab chiqilayotgan harbiy texnika namunalarning REV EMMni belgilovchi parametrlarini yaxshilash;

– REVning o‘zaro halaqitlardan himoyasini kuchaytiruvchi usullarni va uskunalarni qo‘llash.

Radiostansiyani joylashtirish o‘rnini tanlashda joylarning relyefi, radioto‘lqinlar tarqalishining xususiyatlari, yaqin oradagi radiohalaqitlar o‘chog‘i, yirik inshootlar va binolar, elektr uzatish va aloqa liniyalari mavjudligini hisobga olish zarur. Shuningdek, shaxsiy tarkibni va qurilmalarni dushman ommaviy qirg‘in quroli va o‘tidan himoyalash imkoniyati ham albatta hisobga olinishi kerak.

Radiostansiya joylashish o‘rnini to‘g‘ri tanlash aloqa masofasini uzaytiradi, radioaloqa mustahkamligi va ishonchligini oshiradi.

Radiohalaqitlar paydo bo‘lgan vaziyatda radioaloqa chidamliligini ta‘minlash uchun quyidagi choralarini ko‘rish lozim:

zahiradagi chastotalarga o‘tish;

– BP hamda ichkari BPda asosiy navbatchi qabul chastotalaridan foydalanish;

– birlashma AT va qo‘shni tuzilmalar orqali o‘tuvchi aylanib o‘tish kanallaridan foydalanish;

– vositalar mavjud bo‘lganda, QTli va UQTli radiostansiyalardan foydalangan holda o‘rinbosar radioaloqa kanallarini tashkil qilish.

Sanoat halaqitlaridan himoyalashga quyidagicha erishiladi:

– radiostansiyalarni mahalliy shovqinlar manbaidan uzoqda joylashtirish;

– jangovar mashinalar, QShM, komandir mashinalari, jangovar boshqaruv mashinalari, maxsus avtomobillar elektr jihozlarini ekranlash.

Shunday qilib, barcha darajadagi komandirlarning radiovositalarni qo‘llash shartlari va ularni himoyalash bo‘yicha ko‘riladigan choralar majmui bo‘yicha bilimlari ularga istalgan vaziyatda qo‘l ostidagi va biriktirilgan bo‘linmalarni uzluksiz boshqarishni ta‘minlash imkonini beradi.

To‘rtinchi bo‘lim nazorat savollari

1. Radioelektron vosita (REV) larning elektromagnit moslashuvi (EMM) muammolari.

2. Radiohalaqitlarning asosiy turlari va ularni REV ishiga ta‘siri.

3. REVlarning EMMni ta‘minlash bo‘yicha tadbirlar.

ILOVALAR

1- ILOVA

TUSHUNTIRISHLAR

1. Aloqa tugunining har bir elementiga (markaziga, stansiyasiga) P harfi va uch xonali sondan iborat bo'lgan shartli belgi beriladi.

P-100 – telegraf markazi (telegraf stansiyasi);

P-200 – telefon markazi (telefon stansiyasi);

P-300 – kanal hosil qilish markazi (stansiyasi);

P-400 – qo'shirlarni avtomatlashtirilgan boshqarish tizimi markazi (bo'limi);

P-500 – axborot o'tishini ta'minlash markazi;

P-600 – qabul qiluvchi radiomarkaz;

P-700 – uzatuvchi radiomarkaz;

P-800 – koinot aloqasi markazi (stansiyasi) (aloqa tuguni tarkibida mavjud bo'lsa);

P-900 – Muxandislik-texnik tizimi markazi.

Aloqa tuguni tarkibida bir nechta bir xil turdagi elementlar (markazlar, stansiyalar) mavjud bo'lsa ularning shartli belgilari oldiga tartib raqami qo'yiladi.

Masalan: 1P-300, 2P-300, 1P-600, 2P-600.

2. Aloqa tuguni elementlari (markazlari, stansiyalari) har bir jangovar postining (apparatxonasi, stansiyasining) shartli belgisi JP harflaridan va uch yoki to'rt xonali sonlardan iborat bo'ladi va bunda birinchi raqam tegishli elementga (markazga, stansiyaga) qarashli ekanligini ko'rsatadi.

Aloqa tuguni jangovar postlari (apparatxonalari):

JP-010 – aloqa tugunini boshqarish punkti;

JP-020 – jangovar boshqaruv signallarini uzatish (qabul qilish) maxsus aloqa punkti (posti);

JP-030 – aloqa xavfsizligini nazorat qilish punkti;

JP-090 – texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'limi (guruhi).

Telegraf markazining (telegraf stansiyasining) jangovar postlari (apparatxonalari, stansiyalari):

JP-110 – TGM (TGS) boshqaruv punkti va krossi;

JP-120 – maxsus telegraf apparaturalari apparatxonasi (maxsusapparatxona);

JP-130 – oxirgi telegraf apparaturalari apparatxonasi (oxirgi apparatxona);

JP-140 – tonal telegraflash apparatxonasi (stansiyasi, LAZ).

Telefon markazining (telefon stansiyasining) jangovar postlari (apparatxonalari, stansiyalari):

JP-210 – TFM (TFS) boshqaruv punkti va krossi;

JP-220 – maxsus telefon apparaturalari apparatxonasi (maxsusapparatxona);

JP-230 – tezkor (xizmat) aloqa telefon stansiyasining apparatxonasi (kommutatori);

JP-240 – avtomatik telefon aloqa apparatxonasi (stansiyasi);

JP-250 – apparatxona (stansiya, LAZ).

Kanal hosil qilish markazi (stansiyasi) jangovar postlari (apparatxonalari, stansiyalari):

- JP-310 – KHQM (KHQS) boshqarish punkti va krossi;
- JP-340 – tonal telegraflash apparatxonasi (stansiyasi, LAZ).
- JP-350 – apparatxona (stansiya, LAZ).
- JP-360 – radioreley aloqasi apparatxonasi (stansiyasi);
- JP-370 – troposfera aloqasi apparatxonasi (stansiyasi).

Qo‘shinlarni avtomatlashtirilgan boshqarish vositalari markazi (bo‘limi) jangovar postlari:

- JP-410 – QABVM (QABVB) boshqaruv punkti va krossi;
- JP-420 – ma’lumotlar uzatish maxsus apparaturalari apparatxonasi (maxsusapparatxona);
- JP-430 – axborotlarni tayyorlash apparatxonasi;
- JP-440 – maxsus hisoblash kompleksi (MHK);
- JP-450 – hisoblash kompleksi (HK).

Axborotlar o‘tishini ta’minlash markazi jangovar postlari:

- JP-510 – AO‘TM boshqaruv punkti va chiquvchi axborotlarni nazorat qilish punkti;
- JP-520 – kiruvchi axborotlarni nazorat qilish punkti;
- JP-530 – chiquvchi ekspeditsiya;
- JP-540 – kiruvchi ekspeditsiya;
- JP-550 – punshirlash apparatxonasi;
- JP-560 – ko‘paytirish apparatxonasi.

Qabul qiluvchi radiomarkaz jangovar postlari (apparatxonalari, stansiyalari):

- JP-610 – QQRM boshqaruv punkti va chastota-dispatcherlik punkti (posti);
- JP-620 – maxsus telefon va telegraf apparaturalari apparatxonasi (maxsusapparatxona);
- JP-630 – radioqabul qilish qurilmalari apparatxonasi;
- JP-640 – tonal telegraflash apparatxonasi (stansiyasi, LAZ);
- JP-650 – yuqori chastotali telefonlash apparatxonasi (stansiyasi, LAZ);
- JP-660 – radioreley aloqasi apparatxonasi (stansiyasi);
- JP-670 – troposfera aloqasi apparatxonasi (stansiyasi).

Uzatuvchi radiomarkaz jangovar postlari (apparatxonalari, stansiyalari):

- JP-710 – URM boshqaruv punkti va texnik nazorat posti (punkti);
- JP-730 – radiouzatish qurilmalari apparatxonasi;
- JP-740 – tonal telegraflash apparatxonasi (stansiyasi, LAZ);
- JP-750 – yuqori chastotali telefonlash apparatxonasi (stansiyasi, LAZ);
- JP-760 – radioreley aloqasi apparatxonasi (stansiyasi);
- JP-770 – troposfera aloqasi apparatxonasi (stansiyasi).
- JP-790 – elektr bilan ta’minlash stansiyasi.

Koinot aloqasi markazi (stansiyasi) jangovar postlari:

- JP-810 – koinot aloqasi markazi (stansiyasi) boshqaruv punkti;
- JP-820 – diskret xabarlarini uzatish apparatxonasi (DXUA);
- JP-840 – qo‘zg‘ atkichlar kompleksi apparatxonasi;
- JP-850 – zichlash (zichlangan kanallarni ajratib olish) apparatxonasi;
- JP-860 – qabul qiluvchi qurilmalar apparatxonasi;
- JP-880 – koinot aloqasi (KA) stansiyasi, qabul qilish-uzatish kompleksi (QQUK).
Qabul qilish-uzatish apparatxonasi (QQUA).

Muxandislik-texnik tizimlar markazi jangovar postlari:

- JP-910 – MTTM boshqaruv punkti;
- JP-920 – elektr qalqoni;
- JP-930 – dizel elektrostansiyasi (DES);
- JP-940 – elektr ta‘minot stansiyasi (to‘g‘rilagichlar, akkumulatorlar, agregatlar);
- JP-950 – ventilatorxona (ventilyatsiya (havo almashtirish) tizimi va havoni konditsionerlash);
- JP-960 – nasosxona (suv bilan ta‘minlash va kanalizatsiya tizimi);
- JP-970 – sovitish qurilmalari mashinalari zali;
- JP-980 – kompressorxona (siqilgan havo tizimi).

Aloqa tuguni elementi tarkibida bir nechta bir xil turdagi jangovar postlar (apparatxonalar, stansiyalar) bo‘lganda ularning shartli belgilari oldiga tartib raqami

Bunda maxsus apparaturalar jangovar postlari uchun birinchi tartib raqamlari kafolatlangan maxsus apparaturalar jangovar postlariga, keyingi tartib raqamlari esa – vaqtincha kafolatlangan maxsus apparaturalar jangovar postlariga, oxirgi (chetki) apparatxonalarning jangovar postlari uchun esa birinchi tartib raqamlari maxfiylashtirilgan aloqani ta‘minlovchi jangovar postlarga, keyingilari esa – ochiq, maxfiylashtirilmagan aloqani ta‘minlovchi jangovar postlarga beriladi.

Masalan:

1 JP-130,..., 7 JP-130 – telegraf aloqasini ta‘minlovchi oxirgi (chetki) telegraf apparaturalari jangovar postlari;

8 JP-130,..., 9 JP-130 – ochiq telegraf aloqasini ta‘minlovchi oxirgi (chetki) telegraf apparaturalari jangovar postlari;

1 JP-220,..., 2 JP-220 – kafolatlangan maxsus telefon apparaturalari jangovar postlari;

3 JP-220,..., 4 JP-220 – vaqtincha kafolatlangan maxsus telefon apparaturalari jangovar postlari;

1 JP-630 – yopiq, maxfiylashtirilgan tovushli telegraf radioaloqani ta‘minlovchi jangovar post;

2 JP-630 – ochiq, maxfiylashtirilmagan tovushli telegraf radioaloqani ta‘minlovchi jangovar post;

3 JP-630 – telefon va harf bosuvchi telegraf aloqani ta‘minlovchi jangovar post.

Aloqa tugunlari elementlarining ro‘yxatga kirmagan jangovar postlariga (apparatxonalariga, stansiyalariga) shartli belgilanishlar yuqoridagi ko‘rsatilgan tartibga rioya qilingan holda beriladi.

